O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

JAHON SIYOSATI, TARIX VA FALSAFA FAKULTETI

SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI KAFEDRASI

Qo’lyozma huquqida

PO’LATOV SHERDOR NEMATJONOVICH

MAHATMA GANDINING “MENING HAYOTIM” ASARIGA QADIMGI HINDISTON MAKTABLARINING TA’SIRI

5120500 – Falsafa

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: Falsafa fanlari nomzodi,
dotsent **Qodirov.M**

Toshkent-2015

MUNDARIJA

Kirish…… 3-8

I bob. XIX oxiri va XX asr boshlarida Hindiston jamiyatida ijtimoiy-siyosiy hayot

1.1. Hindistonda musataqillik arafasida ijtimoiy-siyosiy hayot…….9-23

1.2. Mahatma Gandi hayoti va faoliyati……23-39

II bob. Mahatma Gandining ijtimoiy- falsafiy qarashlari

2.1. Mahatma Gandining “Mening hayotim” asarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar……40-58

2.2. Mahatma Gandining asarida qadimgi hind falsafasi g’oyalarining aks etishi……..59-75

Umumiy xulosalar……76-78

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati……79-85

Ilovalar

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng yoshlarga keng imkoniyatlar ochib berilmoqda va biz yoshlar bu imkoniyatlardan foydalanmoqdamiz va yoshlarning dunyoqarashi ham o'zgarib, ularning bilim olishga bo'lgan salohiyati oshib bormoqda. "Biz bolalarimizni chin ma'noda jahon bilan bahslasha oladigan o'ktam, dili va tilidan odamlar ozor chekmaydigan, sharqona odob-axloqli, ammo haqini birovga bermaydigan ham jisman, ham aqlan va ham ruhan sog'lom, bardam qilib tarbiyalashimiz lozim bo'lsa, ana shu yo'ldan borishimiz kerak. Ular Forobiy, Ibn Sino, Bahouddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' bobolarimiz merosini ham, Shekspir va Dante, L.Tolstoy va Gyote, Bayron va Gyugo merosini ham o'rgansin, bahra olsin, zamonaga munosib, xalqiga munosib farzandlar bo'lib yetishsin"[1].

Hindiston bilan aloqalar qadim zamonlardan beri davom etib keladi. Bizning tariximizda ham o'ziga xos mushtarak jihatlar mavjud. Boburiylar saltanati Hindistonda bir qancha vaqt hukumronlik qilgani va Boburiylar Hindistonni obod qilishda hissa qo'shgani hech kimga sir emas. O'zbekistonning ham bugungi kunda Hindiston bilan do'stona aloqalari rivojlanib bormoqda. Muhtaram Yurtboshimiz aytganlaridek, "O'zbekiston Hindiston bilan an'anaviy tarixiy aloqalar orqali bog'langan. Ayni paytda mazkur mamlakat bilan munosabatlarda nimagaki ega bo'lsak, u bizdagi mavjud imkoniyatlar darajasida emasligini aytish joiz. O'zbekiston delegatsiyasining Hindistonga qiladigan rasmiy tashrifi iqtisodiy va siyosiy hamkorligimizning jadal rivojlanishi uchun turtki berishiga umid qilaman… Suhbatimiz oxirida o'zbek xalqi Hindiston xalqiga katta hurmat bilan qarayotganini, bizning do'stligimiz va hamkorligimiz aniq-ravshan mazmun bilan boyib borishini xohlayotganini aytmoqchiman. Hindiston xalqi bilan rahbarlariga tinchlik va

[1]Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. -T.: O'zbekiston. 2000. 237-b.

farovonlik tilayman”[2]. O’zbekistonda Hindiston tarixi, falsafasi, siyosati va iqtisodini o’rganishga keng yo’l ochib berilgan.

Hindiston o’zining boy falsafiy tarixiga ega. Bu qadimdan hozirgi kungacha kelayotgan falsafa rivojlanib bormoqda. Shuni qayd etish joiyski, Hindiston deganda birinchi xayolga Mahatma Gandi keladi. U inson nomi Hindiston nomi bilan shunchalik bog’lanib ketganki, uni hech kim ajrata olmaydi. Gandi o’zining jasorati, g’oyalari bilan Hindiston tarixida va dunyo tarixida o’ziga xos iz qoldirdi. Yurtboshimiz Islom Karimov ham uning shaxsiyatiga to’htalib shunday deganlar: ”XX asr tarixida ham bunday ulug’ siymolarni ko’plab uchratish mumkin. Masalan, Hindiston milliy ozodlik kurashining yetakchisi bo’lib maydonga chiqqan, xalq orasida “Mahatma”, ya’ni “buyuk qalb” egasi, deb shuhrat qozongan ulkan mutafakkir va davlat arbobi Mahatma Gandi ana shuday shaxslardan biri edi. U asos solgan Gandizm ta’limotida hind xalqining diliga behad yaqin bo’lgan g’oya va tushunchalar mujassam topgan. Ayniqsa, o’z yurtini mustamlakachilardan ozod qilish, yagona Hindiston birligi, mustaqil davlat barpo etish masalasi Mahatma Gandi hayoti va faoliyatining ma’no-mazmunini tashkil etadi.

Butun umr oddiy va kamtarona, lekin ezgu g’oyalar yo’lida tinimsiz kurashib yashagan bu zotning falsafiy-siyosiy qarashlarida insoniyat uchun ibratli jihatlar ko’p. Jumladan, uning turli muammo va ziddiyatlarni kuch ishlatmasdan, tinch yo’l bilan hal qilishga oid fikrlari dunyo davlatlari o’rtasidagi munosabatlarda, ijtimoiy hamkorlik masalasida bugun ham o’z ahamyati va dolizarbligini yo’qotmasdan kelmoqda”[3].

Yuqoridagilardan shuni aytish mumkinki, Gandi ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi va falsafasini o’rganish dolzarb ahamyatga ega. Dunyoda kechayotgan hozirgi holatda uning ahamyati yanada oshib bormaoqda. Masalan,

[2] Karimov I.A.O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T. O’zbekiston, 2011.364- bet.
[3] KarimovI.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmaskuch. -T.: Ma’naviyat .2008.162-163-b.

Kuch ishlatmaslik g'oyasi dunyo hamjamiyati va siyosiy doiralarda ham qanchalik kerakligini ko'rishimiz mumkin. Chunki hozirgi davr o'zining nihoyatda ko'p qutbliligi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etmoqda. Uning falsafasida ham inson birlamchi omilga chiqarilishi yana bir bor uni dolzarbligini isbotlaydi. Shuning uchun ham Mahatma Gandi falsafasini o'rganish o'z dolzarbligiga ega.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mahatma Gandi Hindiston Mustaqilligida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etgan. Dunyoda o'ziga xos uslub yaratgan, uni va uning falsafasini o'rganish uning hayotlik davridanoq boshlangan. Uning faoliyatini o'rganish o'sha davr hujjatlari, o'sha davrda yashagan yozuvchilar va uning safdoshlari asarlari va hotiralariga va o'zining asarlariga tayanilgan holda aniqlandi.

Mahatma Gandining ijtimoiy-siyosiy qarashlari va falsafiy dunyoqarashi shakllanishi va rivojlanishini o'rganish asosi Gandi hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan hindistonlik, g'arb, russ va o'zbek olimlari asarlariga tayanilgan. Ushbu asarlar ichida, ayniqsa, Датта М.Д.[4], Джавахарлал Неру.[5], Намбудирипад Е. М.[6],Tendulkar D.G.[7], R.Rollan.[8], Рославлев У.[9],КомаровЭ. Н., ЛитманА. Д.[10], ЛитманА. Д[11], МартышинО. В.[12],ГоревА. В.[13], ПолонскаяЛ. Р.[14], ДевяткинС. В.[15], РадхакришнанС.[16], ВасиленкоВ.[17],

[4]Датта Д. Философия Махатмы Ганди / Пер. с англ. А. В. Радугина. — М.: Изд-во иностр. лит., 1959.
[5]Джавахарлал Неру. Открытие Индии Издательство иностранной литературы.- М.,1955.
[6] Намбудирипад Е. М. Махатма Ганди и гандизм. — М.: Изд-во иностр. лит., 1960.
[7]Tendulkar D.G.Mahatma. Life of Mohandas Karamchand Gadhi. – Bobey, 1951-1954.
[8]Роллан Ромен «Махатма Ганди» (1924) — Собрание сочинений, т. XX, — Л.: «ГИХЛ», 1936.
[9]Рославлев У. Гандизм. — М.: Соцэкгиз, 1931.
[10]Комаров Э. Н., Литман А. Д. Мировоззрение Мохандаса Карамчанда Ганди. — М.: Наука, 1969.
[11]Литман А.Д. Философско-этическое учение Махатма Ганди// Литман А.Д. Современная индийская философия. -М.: Мысль, 1985.
[12]Мартышин О. В. Политические взгляды Мохандаса Карамчанда Ганди. — М.: Наука, 1970.
[13]Горев А. В. Махатма Ганди 2-е изд. — М.: «Международные отношения», 1989.
[14]Полонская Л. Р. Махатма Ганди: Смысл жизни. Святой или политический деятель? // Новая и новейшая история № 4, 1991.
[15]Девяткин С. В. Искусство сатьяграхи // Опыт ненасилия в XX столетии. Подред. Р. Г. Апресяна. — М.: Аслан, 1996.
[16]Радхакришнан С. Индийскай Философия Том Пер с анг.1956.
[17]Василенко В. Педагогическая философия Махатмы Ганди.- М.: Наука,1960.

СтепанянцМ.Т.[18], УльяновскийР.А.[19], Joan.V. Bondurant[20], o'zbek olimlaridan esa, Yo'ldoshev S, Amir Fayzulla va boshqa mualliflarning asarlari foydali bo'ldi.

Комаров Э. Н., Литман А. Д. Мировоззрение Мохандаса Карамчанда Ганди. Asari alohida ahamiyat kasb etadi, bu asarda mualliflar Gandi hayoti, siysoiy, ijtimoiy va falsafiy qarashlarini yaxshi yoritgan va qimmatli ma'lumotlar berilgan. Asarda Gandi axloqiy-diniy qarashlariga ham xolisona yondashilgan.

Даттaning Д. Философия Махатмы Ганди, asarida ham Gandi faoliyati obyektiv tarzda yozilgan bo'lib, uning falsafiy qarashlari yaxshi yoritilgan. U kitobda Gandining siyosiy-falsafiy qarashlarining asl mohiyati nimalarga borib taqalishi ko'rsatib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi Mahatma Gandi faoliyati va falsafiy qarashlarini tadqiq etish, uning falsafasi qanday g'oyalarga tayanishini tahlil etish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar shakllangan:

- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistonda kechgan jarayonlarni tadqiq qilish;
- Mahatama Gandi hayoti va faoliyatini o'rganish;
- Mahatma Gandi falsafasini qadimgi hind falsafasiga bog'liqligini tahlil qilish;
- Mahatma Gandining "Mening hayotim" asaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tadqiq qilish;

[18]Степанянц М.Т. Философия ненасилия. Размышления о Ганди и его экспериментах.//Коммунист., № 13, 1990.
[19]Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М.К. Ганди, Дж. Неру, И. Ганди.М.-М.:Наука, 1986.
[20] Bondurant J.V. Conquest of violence The Gandhian Philosophy of Conflict. – Bombay,1959.

- Mahatma Gandining Hindiston milliy ozodlik harakatidagi faoliyatini o’rganish;
- Mahatma Gandining “Mening hayotim” asaridagi axloqiy jihatlarni tahlil qilish;
- Mahatma Gandining “Mening hayotim” asarida qadimgi hind falsafasining o’rni qaydarajada ekanligini tadqiq qilish;
- Mahatma Gandi ijtimoiy-falsafiy fikrlarining yangi davr ijtimoiy jarayonlardagi ahamiyatini tahlil qilish;
- Mahatma Gandi ijtimoiy-falsafiy fikrlarni umumlashtirgan holda umumiy xulosalar chiqarish;

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va metodologik asoslari. Tadqiqotning nazariy asosi bo’lib Mahatma Gandi asarlari, uning falsafiy faoliyati haqida yozilgan asarlar, uning yozishmalari va o’zi chiqargan gazeta va hujjatlar. Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, ma’ruza va nutqlarida ilgari surilgan Sharq falsafasini o’rganishga, shuningdek, bayon etilgan davlatchiligimiz tarixini, siyosiy-huquqiy merosimiz hamda qadriyatlarimizni chuqur va har tomonlama o'rganish.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, mantiqiylik, tarixiylik va tizimlilik tamoyillariga amal qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti va predmeti. Birtiruv malakaviy ishning obyekti Mahatma Gandining “Mening hayotim” asaridagi qadimgi hind falsafasi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti Hindistonning mustaqilligida muhim ro’l o’ynagan Mahatma Gandi ijtimoiy-falsafiy ta’limotini o’rganish.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining yangiligi. Mahatma Gandining “Mening hayotim” asaridagi ijtimioy-falsafiy qarashlar, asardagi qadimgi hind falsafasiga bog’liq jihatlar, uning kuch ishlatmaslik tamoyilining o’rganilishi.

Jaynizm falsafasidagi Ahimsa tamoiyili va shunga doir fikrlarning bevosita hindiy tilidan tarjima qilinganligi, hamda bitiruv malakaviy ishi darajasida tahlil qilinganligi jihatidan yangi tadqiqot va izlanish hisoblanadi.

Mavzu doirasida asosan “Mening hayotim” asarining o’zbek, rus, ingliz va hindiy tilidagi nusxalaridan foydalanildi va ular qiyosiy o’rganildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ahamiyati. Bugungi kunda insoniyat tarixi va falsafasini o'rganish va tarixda bo'lgan voqealarga qanday falsafiy g'oyalar hizmat qilganini aniqlash, g'oyalar insoniyat baxti uchun naqadar kuchli ta’sirini o'rganish ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, tadqiqotning ahamiyati quyidagillar bilan belgilandi:

Birinchidan, XIX asr oxiri va XX asr boshida Hindistonda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni obyektiv tarzda o’rganish va tegishli xulosalar chiqarish muhim.

Ikkinchidan, Mahatma Gandi falsafiy qarshlarining qay darajada ahamiyatligini ko’rish.

Uchinchidan, Mahatma Gandining “Mening hayotim” asarida falsafiy go’yalarni aniqlash.

To’rtinchidan, Mahatma Gandi qarashlari hozirgi jamiyatda nechog’lik muhimligini tahlil qilish.

Mazkur ish materiallari oliy o’quv yurtlari falsafa yo’nalishi va Sharq falsafasi mutaxassisligining bakalavr va magistratura bosqichi talabalari uchun maruza matnlarini, maxsus kurs mavzularini tayyorlashda yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, to’rt bandni o’z ichiga olgan ikki bob, “Xulosa”, “Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro’yxati” va “Ilova” dan iborat.

I bob. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistonda ijtimoiy-siyosiy hayot

1.1. Hindistonda mustaqillik arafasida ijtimoiy-siyosiy hayot

Gandi Hindiston siyosiy maydoniga qadam qo'ygan davrida – bu birinchi jahon urushi yillarida sodir bo'ldi – hind milliy harakati deyarli yuz yil davom etgan rivojlanishning uzoq va mashaqqatli yo'lini bosib o'tgan edi. Ko'p millatli ulkan mamlakatning bir qator tumanlarida ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va matbuot allaqachon mavjud edi. 1885 yilda tashkil topgan birinchi umumhindiy tashkilot – Hindiston milliy kongressi chorak asr faoliyat ko'rsatib, keyinchalik Gandi rahbarligi ostida ommaviy antiimperialistik harakatni boshqardi.

XIX – XX asr boshlarida Hindiston millatida mustamlakachilik va ijtimoiy tengsizlikka qarshi ongli ravishdagi kurash qo'zg'alishining ilk alomatlari paydo bo'la boshladi. Mahalliy ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va Milliy kongressda mustamlakachilik tuzumiga qarshilik ko'rsatishning yo'llari va usullari masalasi bo'yicha mafkuraviy va siyosiy kurash avj oldi, Hindistonning kelgusidagi ijtimoiy rivojlanishi to'g'risida turli hil fikrlar vujudga keldi.

Gandining dunyoqarashi va g'oyaviy-siyosiy o'rnining shakllanishi, asosan mustamlakachilik tuzumi tanazzulga yuz tutgan davrda sodir bo'lib, Hindistonda ushbu inqirozning kelib chiqish jarayonlari bilan bog'liq edi.

XIX asrning birinchi yarmida Hindistonda ijtimoiy milliy-burjua harakati tashkil topib, keyingi o'n yilliklar mobaynida ushbu harakat xalqdan yiroqligicha qoladi, xalq noroziligi esa, ko'pincha, tabiiy ofat singari bostirib keladi.

Mustamlakachilik sharoitida vujudga kelgan burjua munosabatlari o'ziga hos va chegaralangan hususiyatga ega edi. Hindiston jamiyatining yangi elementlari –burjua sinfining o'tmishdoshlari – XIX asrning uch choragi davomida asosan, Kalkutta, Bombey, Madraskabi bir nechta yirik shaharlarda

to’plangan tor qatlamdan iborat edi. Bular endigina tashkil topayotgan ziyolilar - savdogar-zamindor muhitidan chiqqan, yevropacha tipdagi ilk o’quv yurtlarida tahsil olgan va keyinchalik savdo korxonalari xizmatchilari, inglizlar hindular egallashiga izn bergan lavozim egalari va erkin kasb egalariga aylanganlar. Asrning ikkinchi yarmiga kelib, eng omadli savdogar-kompradorlar o’z fabrikalariga ega bo’lib, sanoat kapitalistlariga aylanishga muvaffaq bo’ldilar. Aynan shu davrdan boshlab, Hindistonda mulkdor burjua jamiyati sinfi shakllana boshlandi, bu jarayon hozirgacha davom etib kelmoqda.

Burjua munosabatlarining rivojlanishi mafkura sohasida jamiyatning yetakchi doiralarida diniy-islohot va ma’rifiy g’oyalarning tashkil topishi shaklida aks etdi.

Hindistonning ilk milliy-burjua nuqtai nazaridagi mutafakkiri Ram Moxan Ray (1772-1883)ham diniy islohotchi, ham ma’rifatparvar sifatida faoliyat olib borgan. Bu hususiyat keyingi avlod hind mutafakkirlariga, hususan Gandiga ham hos bo’lib, uning dunyo qarashi diniy-islohot hamda ma’rifatparvarlik elementlariga ega bo’lgan.

Ram Moxan Rayning barcha teologik asarlarida hinduizm dini ilk ko’rinishini yo’qotib endilikda – “u faqatgina zarar keltiradi, insonlarning yashash sharoitlarini yaxshilash o’rniga, ularga qiyinchilik va yo’qotishlar olib kelishi”[21] haqidagi fikri o’z aksini topgan.Yuz yildan so’ng esa, Gandi mamlakatda hukum surayotgan o’rta asrlarga oid urf-odatlardan achchiqlanib, Hindistonni “minglab hindular musulmonlarning uyidan suv olib ichgandan ko’ra, chanqoqdan o’lishni afzal bilgan” “ahmoqliklar mamlakati”[22] deb ataydi. “Kasta bo’linishlari sababli yuzaga kelgan minglab guruh va bo’linmalar esa, ularni vatanparvarlik tuyg’usidan mahrum qiladi. Mening fikrimcha, siyosiy

[21]Roy R.M. The English Works, vol. II, -Allahabad, 1906, 929-930 PP.
[22]Tendulkar D.G. Mahatma.Life of Mahandas Karamchand Gandhi, vol.I,- Bombay.1951-1954, 229 P.

manfaatlari va jamiyat farovonligi uchun dinga biroz o’zgartirish kiritish lozim”[23].

XIX asr Hindiston mutafakkirlarining- Ram Moxan Raydan boshlab, jumladan Gandining - diniy-falsafiy nuqtai nazardan islohotga oid faoliyati monoteistik va deistik tushunchalarni tasdiqlashga qaratilgan edi. Bu esa, o’z navbatida dindan voz kechmay turib, dunyoni ratsional ravishda qabul qilishga intilishni aks ettirgan. Shu bilan birga, Hindistondagi diniy burjua islohotlarning yana bir o’ziga hos hususiyati, dinni odob-axloq normalari bilan to’ldirish tendentsiyasidir. Shu kabi Ram Moxan Rayga xos bo’lgan intilish keyingi hind mutafakkirlarida, ayniqsa XIX asr oxiriXX asr boshida yanada rivoj topdi. An’anaviy hinduizmni tanqid qila turib, Ray ham ratsional, ham odob-axloq normalari nuqtai nazaridan yondashgan. Eng asosiy etik tamoyil sifatida quyidagi fikrni ilgari surgan: “Abadiy baxt-saodatga intilgan inson, boshqalarga ham huddi o’zidaqa munosabatda bo’lishi kerak va o’zgalar baxti yoki baxtsizligini o’ziniki deb hisoblamog’i lozim”[24]. Keyinchalik ushbu tamoyilni Gandi yanada rivojlantirib, “dinning asl mohiyati odob-axloqdir”[25] degan fikrni ilgari surgan.

XIX asrda Hindistondagi diniy islohotlarning eng asosiy o’ziga hos hususiyati, bu diniy universalizmdir, ya’ni diniy ta’limotlar birdamligiga erishishdir. Bunday birdamlikka, Ram Moxan Ray va boshqa hind mutafakkirlari muqaddas dinlar va insonlar tomonidan yaratilgan odob-axloq normalari o’xshashligi va yakkahudolilik asosida erishmoqchi bo’lganlar. O’zining ilk asarlarida Ray barcha diniy ta’limotlar to’g’ri, chunki ular “yagona oliy mavjudot” mavjudligini tan oladi, chunki ular “aniq Xudo yoki Xudolar” borligiga ishonishadi va alohida marosim o’tkazish kerakligini uqdirishadi, deb

[23]Roy R.M. The English Works, vol. II, 116 P.
[24]Roy R.M. The English Works, vol. I, 811 P.
[25]Ганди М.К. Моя жизнь, -М., 1959, 40 P.

yozgan. Va bu ish, uning fikricha, “aldoqchilarning” ishi bo’lib, insonlar “birdamligini buzadi”[26].

Hind islohotchilarining ham diniy, ham odob-axloq universalizmida, insonlarning qaysi dinga ishonishidan qat’iy nazar, tengligi g’oyasi ilgari surilgan, bu o’z navbatida, millatlar va irqlarning tengligini anglatgan. 1804 yilda Ram Moxan Ray shunday yozgan “barcha insonlar qaysi dinga ishonishidan qat’iy nazar, bir xil azob-uqubatlardan, sovuqdan va qorong’ulikdan, xastaliklar va hayot zarbalaridan, tana va psixik majruxliklardan aziyat chekishadi”[27]. Diniy universalizmning targ’ib qilinishi, turli dinlarga e’tiqod etuvchi hindlarning, eng avvalo hindular va musulmonlarning birlashishiga bo’lgan ishtiyoqini aks ettirgan. Ushbu ishtiyoq Gandi singari XIX asrning keyingi islohotchilarida, Rayga nisbatan yanada kuchliroq edi. 1908 yilda u shunday degan: “Musulmonlarning xudosi hindularning xudosidan farq qiladimi? Turli dinlar bu bitta nuqtada kesishadigan turli yo’llardir.Agar ular bitta manzilga olib borsa, bizning turli yo’llardan ketayotganimizning nima ahamiyati bor. Demak, bizning urushishimizga hech qanday sabab yo’q”[28].

Insonlar tengligi va milliy birlashuv g’oyalarini ilgari sura turib, din tarafidan yoqlangan kasta tizimi tanqid etilgan. Ram Moxan Ray “kastalarga bo’linish” Hindistonning tashqaridan kelgan bosqinchilarga osongina qurbon bo’lishining sababi, deb bilgan.

Kasta tizimini tanqid eta turib, Gandi ushbu tizimda nafaqat milliy birlashuvga to’sqinlik qiluvchi o’rta asrlardagi kabi bo’linishlarni, balki eng avvalo ijtimoiy tengsizlik va ezilishlar gavdalanayotganini ko’rdi. U kasta bo’linishlariga nafaqat ma’rifatparvarlik nuqtai nazaridan, balki demokratik nuqtai nazaridan kelib chiqib qarshi bo’lgan. U shunday yozgan: “Kasta

[26]Roy R.M. The English Works, vol. II, 944, 958 PP.
[27]Roy R.M. The English Works, vol.II, 960 p.
[28]Gandhi M.K. Indian Home Rule or Hind Swaraj,- Madras, 1947, 41 P.

bo’linishlari bir odamning ikkinchisidan ustunligini anglatgani uchun, ular butunlay yo’q qilinishi lozim”[29].

Mutafakkirlar xalq ommasini, va eng avvalo dehqonlarni, feodallar zulmidan saqlab qolmoqchi bo’lganlar. Ularning fikricha, feodal tizimining yo’q qilinishi va burjua munosabatlarining o’rnatilishi “mamlakatda umumiy farovonlik”ka olib keladi[30].

Hindistonning liberal mutafakkirlari mamlakatda yangi ta’limning joriy etilishini (Ram Moxan Rayning tashabbusiga ko’ra, 1816 yilda hind savdogarlari mablag’lariga Kalkuttada ilk yevropacha usuldagi maktab ochilgan), hindlarning ilmiy va texnik bilimlarni egallashlarini, iqtisodiy rivojlanish, asrning ikkinchi yarmiga kelib esa, sanoat rivojlanishi tarafdori bo’lganlar. Ular milliy va tabaqalar tengligini targ’ib qilganlar, davlat boshqaruvining respublika formasini ilgari surganlar, hindlarning fuqarolar huquqlari va milliy qadriyatlarini himoya qilganlar.

Hindistonning yetakchi ma’rifatparvarlari dehqonlarning feodal-zamindor va soliq eksplutatsiyasini chegaralashni, dehqon shahsiyati va mulki ustidan zamindorlar, soliq amaldorlari va plantatorlarning hukmronligini yo’q qilishni talab qilishgan. Ammo zamindorlarni o’z yerlaridan mahrum qilish darajasiga deyarli ko’tarilishmagan, bunday hol 70 yillarda sodir bo’lib, keyingi o’n yilliklar davomida uchramagan. Chunki, Hindistonda paydo bo’layotgan burjua elementlarining o’zi ham ular bilan chambarchas bog’liq edi.

Ma’rifatparvarlik g’oyalarining targ’ib qilinishi nafaqat o’rta asrlarga oid munosabatlarning, balki mustamlakachilik tizimining ham tanqid qilinishiga olib keldi.Vaqt o’tishi bilan ushbu jarayon XIX asr milliy tashkilotlarining faoliyatida sezilarli o’rin egallay boshladi. Bu asosan mustamlakachilik eksplutatsiyasiga, hindlarning Hindistonni qoloqlikka, xalqni esa qashshoqlikka

[29] “Harijian” 2.II.1934.

mahkum etayotgan britan hokimiyati oldida haq-huquqsizligiga qarshi tanqidlardan iborat edi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida faoliyat olib borgan milliy mutafakkirlardan biri Dadabxay Naorodji (1825-1917) shunday degan: “Britan hukmdorlari Hindistonning old eshiklarida turib, butun dunyoga uni tashqi havfdan qo’riqlayotgani haqida ta’kidlashadi, o’zlari esa uning orqa eshigidan o’zlari qo’riqlab turgan hazinani olib ketadilar”[31]. Yana boshqa mutafakkir M.G.Ranade mustamlakachilik tuzumi “millat hayotini tashkil etgan faollikni to’xtatib qo’yadi”, “siyosiy hokimiyat monopoliyasi esa, savdo va sanoat monopoliyasiga olib keladi”,[32]degan.

Ram Moxan Raydan boshlab, XIX asrning liberal arboblari hindlarning davlat boshqaruvida ishtirok etishlarini talab qilishgan. Boshida hindlarni davlat lavozimlariga ishga olinishlarini, keyinchalik esa, hindlar ishtirokida qonun chiqaruvchi organlar tashkil etilishini talab etishgan.

Shunga qaramasdan mustamlakachilik tuzumining liberal-ma’rifatparlik tanqidi mustamlakachilikdan umuman voz kechib, mustaqillik talab qilinishi darajasigacha borib yetmagan. Bunga asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan bir qator o’zaro bo’g’liq shart-sharoitlar sabab bo’lgan.

Hindiston jamiyatining burjua elementlari, keyinchalik esa shakllanayotgan burjua sinfi ingliz kapitali va mustamlakachilik hokimiyatiga nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan qaram bo’lgan. Vujudga kelayotgan burjua elementlari inglizlar hukmronligi davrida vujudga kelgani sababli mamlakatda an’anaviy kuchiga ega emas edilar. Shunday ta’sir kuchiga ega bo’lmasdan va inglizlar tomonidan monopollashtirilgan davlat boshqaruviga qatnasha olmasdan bunday burjua elementlari aytarli darajada siyosiy o’ringa ega emas edilar. Endigina shakllanayotgan burjuaziya faqatgina xalq o’zligini

[31] “Новая история Индии”,- М., 1961. Стр. 466.
[32]Тамже, Стр. 466-467.

anglab yetib, ommada o'zining millatchilik ta'siriga ega bo'lgandagina siyosiy kuchga aylana olardi. Bu faqatgina XX asrda sodir bo'ldi.

XIX asr davomida va hattoki XX asr boshlarida hind milliy tashkilotlari faqatgina yuqori tabaqalarga mansub bo'lgan. Shunga qaramasdan, XIX asrda vujudga kelayotgan hind burjuaziyasining muayyan tashkillanishiga erishilganligi – Milliy kongress birinchi hind milliy tijorat palatasi bilan deyarli bir vaqtda tashkil topgan, - antiimperialistik harakatning milliy-burjua boshqaruvining amalga oshirilishida muhim rol o'ynadi. Ammo milliy tashkilotlar u davrda ommaviy tarzdagi faoliyatdan yiroq bo'lgan. Bunday sharoitda, endigina shakllanayotgan burjuaziya mamlakatda o'zining talablariga javob beradigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni mustaqil ravishda o'rnatishga erisha olmasdi. U ingliz hokimiyati o'zining ekspluatatorlik manfaatlarida foydalanadigan burjua huquqiy tartibi elememtlaridan foydalanib, o'zining hokimiyati ostida rivojlanishiga erishishga harakat qilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, XIX asrda shakllanayotgan burjuaziya ingliz hukmronligini ag'darish uchun kurash olib borishni hayoliga ham keltirmagan. Liberal-ma'rifatparvarlik nuqtai nazaridan faoliyat ko'rsatgan milliy tashkilotlar va arboblar inglizlarga qarshi xalq qo'zg'olonlariga salbiy munosabatda bo'lganlar, ommada anrxiya tashuvchilarini ko'rganlar. Ular hind xalqiga emas, Hindistondagi ingliz hokimiyatiga, va ayniqsa, Angliya ommasining fikriga murojaat etganlar.

XIX asr oxirida faoliyat olib borgan milliy yetakchilardan biri S.Nair, 1897 yilda Milliy kongressda raislik qila turib: "Ingliz hukmronligining qulashi bizga anarxiya, urush va bosqinchilikni olib keladi…Nodon omma ingliz hukmronligining susayishi oqibatida qanday xavf tug'ilishi mumkinligini tushunmaydi"[33],deb ta'kidlagan.

[33]"The Indian National Congress. Presidential Adresses",- Madras, 1917, pt I, p. 362

Mafkura sohasida ularning bu pozitsiyasi va faoliyati Hindistonning kelajakdagi rivojlanishi masalasiga ma'rifiy nuqtai nazardan yondashuvi bilan bog'liq bo'lgan.

Burjua munosabatlarining mutlaqo manfaatli, deb topilishi hind mutafakkirlarini g'arbdagi, eng avvalo Angliyadagi burjua tizimini ideallashtirishlariga olib keldi. Masalan, Ram Moxan Ray inglizlarni "fuqarolik va siyosiy ozodlikdan bahramand bo'layotgan, xudo siylagan millat"[34], deb atagan. Bunday ideallashtirish oqibatida, Hindistonda, o'z navbatida, ingliz hokimiyati burjua munosabatlarining o'rnatilishiga ko'maklashadi, degan illyuziyalarning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Ram Moxan Rayning fikriga ko'ra, hindlar, "umumiy va siyosiy bilimlarni, hamda zamonaviy sanoat san'ati va ilmini egallab olganlaridan keyin, har qanday adolatsizlik va jabr-zulmga qarshi tura oladilar"[35].

Bu davr mutafakkirlarining qarashlarini Dadabxay Naorodjining quyidagi gaplari bilan tasvirlash mumkin: "Mening istagim va maqsadim qo'zg'olonlarni rag'batlantirish emas, balki uni oldini olib Angliya va Hindiston o'rtasidagi aloqalarni ikki mamlakat uchun ham foydali va samarali qilishdir. Bu aloqalar aynan shunday bo'la oladi, ammo afsuski, adolatsiz boshqaruv tuzumi va Angliya Qiroli va xalqi, parlamentining adolatli boshqarish istagiga qarshi saqlanib kelayotgan ijro etuvchi hokimiyat tufayli shu vaqtgacha bo'la olmadi"[36].

Shunday qilib, liberal ma'rifatparvarlarning faoliyati hindlarda milliy va demokratik o'z-o'zini anglashga yordam berib, milliy-ozodlik harakatining o'sishiga zamin yaratish bilan bir qatorda, ozodlik urushini ushlab turuvchi muayyan g'oyaviy-siyosiy an'anani ham yaratdi. Ushbu milliy harakatning

[34]Roy R.M. The English Works, vol. I, 470 P.
[35]Roy R.M. The English Works, vol. I XVIII.P.
[36]Masani R.P. Dadabhi Naoroji, -Delhi, 1960, 137 P.

liberal chegaralanganligini yengish uchun, XIX – XX asr mutafakkirlari, va ulardan eng yirigi hisoblangan Gandiga juda ko'p kuch sarflash kerak bo'ldi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Hindiston jahon kapitalistik savdosiga chuqurroq kirib boradi, kapital qo'yish sohasiga ham aylanib, kapitalistik ishlab chiqarishga ham aralashadi. Kalkutta, Bombey, Madras kabi yirik port shaharlarida fabrikalar quriladi. Mamlakat ichiga qaratib temir yo'l yo'nalishlari quriladi. Oliy o'quv yurtlari ham paydo bo'lib, ularning soni ko'paya boshlaydi. Burjua jamiyati sinflari – burjuaziya va proletariat – shakllanishi jadallashadi.

Birinchi Jahon urushi arafasida Hindistonda 4500 dan ziyod mexanik dvigatelga ega korxona mavjud bo'lib, ularda milliondan ortiq ishchi ishlagan.

Hindistonning jahon kapitalistik savdosiga kirib borishi, hamda kapitalistik shaharlarning rivojlanishi feodal munosabatlarning yo'q bo'lishiga va qishloqlarda ijtimoiy siljishlar sodir bo'lishiga olib keldi. XIX asrning ohirida ushbu holatlar sharqda Bengaliya, g'arbda esa, Maxarashtrada kuzatilgan. Bu yerlarda 70 yillarda dehqonlarning antifeodal chiqishlari to'lqinlari ko'tarildi, keyinchalik, bu chiqishlar mustamlakachilikka qarshi yo'nalish oldi.

Kapitalistik shaharlarning paydo bo'lishi va burjua jamiyati sinflarining tashkil topishi bilan bir vaqtda, yangi milliy intellegensiya ham shakllana boshladi. Ushbu insonlarning ba'zilari feodal tuzumga qarshi e'tirozlarga qo'shilib, hattoki ularga rahbarlik ham qildi. Ammo, asosan, ushbu intellegensiya mamlakat millatining qul qilinishiga qarshi norozolik bildirgan. Ushbu norozilikni shakllanayotgan burjuaziya ham qo'llab-quvvatlagan.

Hindiston milliy harakatining yorqin namoyondalaridan bo'lgan Bonkimchondro, keyinchalik Gandi ham, mustamlakachilik va pulning cheksiz hukmronligi tanqidini tenglik g'oyasi himoyasi bilan birgalikda olib borgan. Shu bilan birga, Bonkimchondroning qarashlari keyingi avlod arboblari va ayniqsa Gandining xalq ommasiga suyanishga intilishi bilan mos keladi.

Bonkimchondro Vatan taqdirini o'zlarining holati bilan to'g'ridan-to'g'ri bo'g'lagan va bu haqidao'zining "Bengal dehqoni" maqolasida (1873) yozgan. "Vatan ravnaqi? Bu kimning ravnaqi? Men sening va mening ravnaqimni ko'ryapman. Lekin sen va men – bu vatanmi? Bizga o'xshaganlar bizning mamlakatimizda qancha? Unda qancha dehqon bor? Agar ularni hisobga kirgazmasa kim qoladi? Ular – Vatandir. Uning xalqining katta qismi dehqonlardir. Sen va men nima qila olamiz? Agarda ularning barchasi birgalikda ishga kirishsachi, keyin ko'ramiz, nima bo'ladi?Agar ularga farovonlik bo'lmasa, Vatan uchun ham farovonlik bo'lmaydi"[37].

Bonkimchondro "mamlakat rivojlanishidagi eng asosiy to'siq – bu xalq yuqori va quyi tabaqalari manfaatlarining umumiy emasligida"[38] deb bilgan.U yerga hususiy mulk sifatida egalik qilishni qoralagan, yer egalari dehqonlarga nisbatan o'z qulidek munosabatda bo'lib, "dehqonlar ter to'kib ishlagan yerlaridan o'ziga tegishli ulushini olishga haqli"[39], deb hisoblagan.

Ijtimoiy kelishmovchiliklarni bartaraf etishdagi urunishlar ularni odob-axloq normalarini targ'ib etish yo'li bilan masalaga yechim toppish mumkin, degan g'oya tug'ilishiga olib keldi. Bonkimchondro davridan boshlab, deyarli barcha hind mutafakkirlari ushbu yondashuvga ega bo'lganlar.

Har qanday dinning "abadiy asosi" – ya'ni dxarma to'g'risida Bonkimchondron shunday yozadi: "Dxarma – bu insoniylik, odamlarga nisbatan muxabbat va ezgu ishlarni amalga oshirish, bular hudoga bo'lgan vafodorlik bilan to'ldirilib, insonga shahsiy baxt olib keladi…Dxarma vedalarda emas, balki insonlarga nisbatan qilingan ezgulikda mujassamdir. Hudoga vafodorlik, insonga nisbatan muhabbat va qalbdagi osoyishtalik – bularning barchasi

[37]"Bankim Racanabali", II q.,- Kalkutta, 1954, 288-289 PP.
[38]Dasgupta N.N. The Indian National Congress, -Calcutta, 1946, vol. I, 389 P.
[39]"Bankim Racanabali", 288 P.

dxarmadir”[40].Va yana: “Unutmanglar, Vatanga bo’lgan muxabbat – eng oliy dxarmadir”[41] – deb qo’shimcha qiladi.

Radikal millatchilik g’oyalarining keyingi rivoji, Svama Vivekanda (1863-1902) qarashlarida o’z aksini topgan. G’arbda Vivekandani asosan diniy faylasuf sifatida bilishgan. Ammo uning chiqishlari faqatgina diniy-falsafiy mavzular bilan cheklanib qolmagan. U ushbu mavzuni Hindistondagi mavjud ijtimoiy va siyosiy muammolar bilan uzviy bog’lagan.

U ham Bonkimchondro singari, liberal faoliyatning mustamlakachilik hokimiyati oldida kuchsizligidan g’azablangan.“Bizning yosh ziyolilarimiz, - der edi u, - inglizlardan ko’proq hokimiyat olish uchun mitinglar uyushtirishadi. Ular esa, faqatgina kulishadi. O’zi ozodlik berishga tayyor bo’lmaganlar, ozodlikka nomunosibdir. Faraz qilaylik, inglizlar sizga barcha hokimiyatni berishadi. Keyinchi? Bu hokimiyat, xalqni quyida ushlab turish uchun ishlatiladi. Undan ko’ra, ularda bu narsa bo’lmagani ma’qul. Qullar hokimiyatni qul qilmoq uchun hoxlashadi”[42].

1894 yilda Vivekanda Chikagoda shunday yozgan: “G’arbda bizning kastalarimizni tanqid qilishsa ham, ularning o’zlarida biznikidan battarroq kasta bo’linishlari – pul bo’yicha bo’linishlar mavjud. Barcha ishga qodir dollar – amerikaliklar uni shunday atashadi – bu yerda nima hoxlasa, shuni qilishi mumkin”[43].

Vivekanda o’tmishga aylanayotgan feodal tartib ham, mamlakatda tashkil topgan burjua munosabatlari ham to’laligicha maqul emas, degan hulosaga kelgan ilk hind mutafakiri bo’lgan.

“Mehnat qiluvchilar hokimiyati” o’rnatilishi g’oyasini ma’qullab, va hattoki “dunyoning barcha mamlakatlarida” uning o’rnatilishi muqarrar deb

[40]“Bankim Racanabali”, 589, 670 PP.
[41]“Bankim Racanabali”, 671 P.
[42]“The Complete Works of Swami Vivekanda”, Advaita Ashrama, 1922-1951, vol. IV, 313 .
[43]O’sha yerda, 307 b.

hisoblagan Vivekanda, Bonkimchondro singari, sotsialismga olis ideal sifatida qaragan.

Ijtimoiy qarama-qarshiliklardan qutulishning yagona yo'li bu "hind ma'naviyati"ni tasdiqlashda deb bilib, Vivekandadan boshlab, hind mutafakkirlari Hindistonning tarixiy vazifasi – dunyoga qutqaruvchi ma'naviyat olib kirishdir, deb hisoblashgan.

Birinchi Jahon urushining oxirigacha millatchilar ommaviy harakat tashkil etish dasturini amalga oshira olmadilar. Bunga Gandi muvaffaq bo'ldi.

Milliy harakatning yetakchi vakillari mamlakatda burjuaziya tashkil topishi yangi ekspluatator sinfi shakllanishiga olib kelayotganini anglay boshlashdi. Bu haqida birinchilardan bo'lib Gandi gapirib o'tgan. 1908 yilda u shunday yozgan: "Fabrikalari orqasidan boylik ortirayotgan kimsalar boshqalaridan yaxshiroqga o'xshamaydi. Hind Rokfelleri Amerika Rokfelleridan yaxshiroq bo'lishiga umid qilish tentaklikdir.Puli bor insonlar ingliz hokimiyatini qo'llab-quvvatlaydi. Ular ushbu hokimiyat barqarorligi tarafdoridirlar"[44]. Shu bilan birga, mamlakatda kapitalizmni oldini olish umidida u: "Agar ertaga britan boshqaruvi hind boshqaruviga almashtirilganda ham Hindistonning ahvoli yaxshilanib qolmasdi, faqatgina, Angliyaga oqib ketayotgan pullarning bir qismi tejab qolinardi holos",[45] deb ta'kidlaydi. Ushbu g'oyalarni siyosiy nuqtai nazardan rivojlantirgan holda, 1913 yilda Bipin Chandra Pal bunday yozgan: "Hokimiyat bosqichma-bosqich tashqi begona byurakratiyadan hind burjuaziyasi qo'liga o'tgani sayin, mamlakatda xalq va boshqaruv sinfi o'rtasida ziddiyatlarning rivojlanishiga olib keladi"[46].

Hindistonda birinchi bo'lib, 90 yillarning oxirida Bal Gangadxar Tilak proletariat illatlarini qoralab chiqqan. Uning "Maratta" gazetasi shunday yozgan: "Inglizlar hokimiyati notavon dehqonlarni o'z sevimli dalalarini,

[44]Gandhi M.K. Indian Home Rule or Hind Swaraj, -Ahmedabad, 1946, 97 P.
[45]Gandhi M.K. Speeches and Writings, -Madras, 1922, 768 P.
[46]Pal B.C. Nationality and Empire, 210 P.

uylarini tashlab, Bombeyning kir va tor mavzelariga joylashishga majbar qilmoqda. Ular u yerda badbo'y kulbalarda yashab peshona teri bilan bir bo'lak non topishadi, o'z qishloqlariga qaytganda esa, ularning jamg'armalari faqatgina yer solig'ini to'lashga yetadi. Maxarashtraning jasur dehqonlari va Konkanning ziroatchilari endi armiya va flotda hizmat qilmayaptilar. Ingliz hokimiyati qachonlardir Konkan va Maxarashtraning asosiy kuchi hisoblanganlarni, o'z Vatanlari iftixori sanalganlarni – oddiy batraklarga aylantirdi"[47].

Bu kabi Hindiston uchun yangi bo'lgan g'oyalarni deyarli bir vaqtda Gandi va Ananda Kumarasvami ishlarida kuzatish mumkin. Ularning ikkisi ham egasining millati qanday bo'lishidan qat'iy nazar fabrikalarga hamla qilgan. "Qishloq hunarmandi chorasiz qolganda, fabrika Lankashirda yoki Bombeyda qurilganining, buning oqibatida hind yoki manchesterlik fabrikantlar boylik orttirayotganining unga qizig'i yo'q…- ,deb yozgan Kumarasvami 1907-1908 yy.- Hindistonni faqatgina bir masala qiziqtiradi, Sharqda ham G'arbning yirik shaharlarida tijorat tizimi rivojlanishi tufayli yuzaga kelgan jismoniy va axloq degradatsiyasi, alkogolizm va ishsizlik muammolari ham yuklanadimi? Bundan havfsirash uchun juda ko'pgina asoslar mavjud"[48].Ananda Kumarasvami o'z asarida yirik kapitaldan ozod bo'lgan mayda ishlab chiqaruvchilar jamiyatini tuzish rejalarini rivojlantirgan. Aynan shunday jamiyatni u sotsialism deb bilgan, va u sotsializmning ideali aynan Hindiston tomonidan amalga oshirilishi mumkin degan: "Sanoat ishlab chiqarilishi sotsializm asosida tashkil etilishi mumkinligini aynan biz ko'rsatib berishimiz kerak"[49].

Kumarasvamida gap faqatgina sanoat rivojlanishi haqida borgan – ushbu masalaning muhokama etilishi svadesh harakati tomonidan rag'batlantirilgan. U qishloq xo'jaligi hamda qishloqlarni deyarli tilga olmagan.Shu bilan bir vaqtda,

[47]"Times of India, Overland Weekly Edition", 10.IX.1897.
[48]Coomaraswami A.K. Essaya in National Idealism,- Colombo, 1908, 157 P.
[49]Coomaraswami A.K. The Deeper Meaning of the Struggle, Clouchestershire, 1907, 27 P.

mamlakatda “bizning qishloqlarimizdagi og’ir ahvolga kelgan hayotni”[50] qayta tiklash g’oyalari tarqala boshladi. Ko’p hollarda bu qishloqlarga e’tibor qaratishga, “yangi avlodni” – ya’ni intellegensiyani – qishloqlarda ishlashga da’vat etishdan iborat edi. Ayni damda, qishloq hayotini yaxshilash bo’yicha dastur ishlab chiqib, uning asosida mustamlakachilikdan ozod bo’lgan jamiyat qurishga urunishkar ham bo’lgan.

Aynan ana shunday dastur bilan 1908 yilda Pabnada bo’lib o’tgan Bengal provinsiya anjumanida Rabindranat Tagor o’zining “Rais nutqlari”da chiqish qilgan. Tagor qishloq jamiyatini “xalq tayanchi va onasi”, deb ataydi, va u yerdagi dehqonlarning kambag’alligini, ularning politsiya, soliq yig’uvchilar va boshqalarning qurboniga aylanayotgani haqida afsus bilan gapirib o’tgan. Qishloq jamiyatini u “ildizi bilan sug’urib olingan daraxtga” o’xshatadi, va u endilikda “shavqatsiz yangi zamon to’lqinida suzib boradi…Yirik fabriklar girdob singari qashshoq dehqonlarni o’z domiga tortib ketmoqda”[51].

Ammo Tagorning dasturini amalga oshirishdagi rejalari utopikligicha qolgan edi.Uning dasturida zodagonlarning yerga egalik qilishini bartaraf etish ko’zda tutilmagan edi. Mamlakatni kelajakda kutayotgan ijtimoiy ziddiyat baxtsizligidan qutqarib qolish umidida qandaydir o’zaro bitimga kelish nazarda tutilgan. U zamindorlarni insofga, vavatanparvarlikka chaqirgan, “umumiy farovonlik yo’lida shaxsiy manfaatlardan kechish” lozimligiga ishontirgan. Vivekanda esa, xalq nafrati bilan tahdid qilgan: “boshqalarning hokimiyatini kamaytirish evaziga o’zining hokimiyatini cheksiz qilish – cho’ntagida dinamit bilan yurish bilan barobardir. Qasosdan qutulib bo’lmaydi”[52].

XIX asr ohiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan, yuqorida keltirib o’tilgan, Hindiston milliy-ozodlik harakatining yetakchi mutafakkirlarining g’oya va

[50]Pal B.C.Nationality and Empire, 218 P.
[51]Tagor R. Собрание сочинеий, 11 q.,- M., 1965, 180, 182c .
[52] Там же, стр. 182-183.

qarashlari Gandi fikrlarining shakllanishida tarixiy asos bo'lib xizmat qildi. Mustamlakachilik tuzumi va ingliz hukmronligiga qarshi e'tiroz, millatchilik va demokratik tizmni mujassamlashtirish va unga qo'shimcha ravishda Hindistonda ingliz hukmronligi yuzaga keltirgan pulning va boylarning cheksiz hokimiyati singari "zamonaviy sivilizatsiya"ning tanqidi, yirik sanoatdan voz kechib mayda ishlab chiqaruvchilar jamiyati haqidagi orzular, patriarxal munosabatlar va institutlarni, va ayniqsa diniy ongni ideallashtirish, diniy-axloqiy targ'ibot va ijtimoiy kelishuvga intilish – bularning barchasi Gandining ijtimoiy konsepsiyasida mujassamlantirilgan.

1.2. Mahatma Gandi hayoti va faoliyati

Moxandas Karamchand Gandi Hindistonning buyuk siyosiy arbobi va millat otasi "Mahatma"-"buyuk qalb" egasi nomi bilan butun insoniyat tarixida o'z nomini qoldirgan insondir. Mahatma Gandi 1869-yil 2 oktabrda Porbandar shahri (Hozirgi Gujarot shtati)da tavallud topdi. "Gandilar aftidan bir vaqtlar baqqollik qilgan baniya toifasiga mansub. Biroq bobomdan boshlab so'ngi uch avlod vakillari Kathiyovarning bir qancha rojaliklarida bosh vazirlar bo'lgan. Bobom O'ttamchand Gandi, yoki ko'pincha uni O'ta Gandi deb ataganlar, juda qattiqqo'l odam bo'lgan ekan. Davlat ichidagi fisq-fujurlar tufayli u Po'rbandardagi devonbegilik lavozimidan voz kechib, Junagarhga panoh izlab ketishga majbur bo'lgan. U yerda u odatda navobga chap qo'lini silkitib salom bergan. Uning ochiq-oydin bunday beodobligini ko'rgan kimdir nega bunday qilasiz, deb so'raganida, u: "O'ng qo'lim Po'rbandarga qarashli, " – deb javob bergan ekan.

O'ta Gandining xotini o'lib, ikkinchi bor uylangan. Birinchi xotinidan to'rt, ikkinchisidan ikki o'g'il qolgan. Esimda, bolalik paytimda bobomning o'g'illari ikki onadan ekanligini xayolimga ham keltirmagandim. Shu oltovlon og'aini ichidan beshinchisining ismi Karamchand Gandi yoki Kaba Gandi edi, oltinchisining ismi esa Tulsidas Gandi bo'lgan. Shu ikkala aka-uka birin-ketin

Po’rbandarning bosh vazirlik lavozimida ishlagan. Kaba Gandi – mening otam. U Rojaston sudining a’zosi edi. Hozir bu sud yo’q bo’lib ketgan, ammo o’sha paytda bu g’oyat mo’tabar idora bo’lib, sulola boshliqlari o’rtasidagi mojarolarni bartaraf etib turgan. Kaba Gandi birmuncha vaqt Rajkotda, keyinroq Vankanerda bosh vazir bo’lgan. To o’limigacha u Pajkot hukumatidan nafaqa olib turgan”[53].

Karamchand Gandi (1822-1885) yillarda bosh vazir bo’lib ishlagan Po’rbandarda. “Otam o’z nasliga sodiq, haqgo’y, mard va bag’rikeng, ammo jizzaki odam bo’lgan. Ma’lum darajada hissiy lazzatlarga o’ch ham bo’lgan, to’rtinchi martta uylanganida u endigina qirqqa kirgan edi. U hech kimga sotilmagan va haqgo’yligi tufayli oilada ham, o’zgalar orasida ham hurmatga sazovar edi”.[54] Rajkotdavlatiga nisbatan moiylligi ham yaxshi ma’lum edi. Bir kuni siyosiy agent yordamchisi Rajkotning thakur sohibi haqida haqaratomuz gaplarni aytib qoladi. Otasi aynan shu thakur sohib qo’lida ishlardi. Haqoratga Kaba Gandi haqorat bilan javob qildi. Agent jahli chiqib, Kaba Gandini kechirim so’rasin, deb turib oladi. Kaba Gandi kechirim so’ramadi va hibsga olindi. Biroq qarasaki, Kaba Gandi bo’yin egadiganlardan emas, bir necha soatdan keyin agent Kaba Gandini ozod qilib yubordi.

Kaba Gandi hech qachon boylik to’plashga intilmagan va bolalariga arzimagan bisot qoldirgan. U hech qanday ma’lumot olimagan, faqat katta hayot tajribasi to’plagan; juda nari borganda gujarot maktabining beshinchi sinfigacha o’qigan, xolos.

“Otam tarix va jug’rofiyadan hech qanday tushunchga ega bo’lmagan. Ammo boy hayotiy tajriba uning eng murakkab masalalarni hal etishda va yuzlab odamlarning boshini biriktirishda qo’l kelgan. Din borasida ham uning bilimi haminqadar edi, biroq ehromlarga qatnash va diniy va’zlarni tinglash

[53]Gandi M.K. Mening Hayotim.-T.:O’zbekiston, 2009. 8- b.
[54]O’sha asar, 9 b.

tufayli unda ko'plab hindularga xos bo'lgan diniy madaniyat bor edi. Yoshi bir joyga etganida bir olim brahman da'vati bilan (u oilalamizning do'sti edi) "Bhagavad-gita"ni qiroat qila boshlagandi va ibodat vaqtida har kuni undan bir qancha misralarni ovozini chiqarib qiroat qilardi"[55].

"Onam haqida menda muqaddas ayolga xos taassyrot qolgan. U judayam xudojo'y edi va ibodat qilmasdan ovqat eyishni xayoliga ham keltirmasdi. U Vishnuparasatlar ibodatxonasi – haveliyiga har kuni borishni o'zi uchun farz deb bilarardi. Agar yanglishmasam, onam chaturmasni biron martta ham kanda qilgan emas. U qattiq riyoziyot chekar va rasm-rusumlarni qunt bilan ado etar edi. Esimda: bir kuni chandrayan vaqtida u og'rib qoldi, ammo kasallik ham uning ro'zasini tutishga xalal bermagandi. Surinkasiga ikki- uch kun ro'za tutish uning uchun hech gap emas edi. U hatto chaturmas vaqtida kunda bor-yo'g'I bir martagina ovqatlanishga odatlangan edi. Bu ham etmaganday, chaturmaslardan birida u kunora ro'za tutaboshlagandi. Boshqa bir gal esa, chaturmas vaqtida to quyoshni ko'rmaguncha ovqat emaslikka ont ichgandi. Shunday paytlarda biz, bolalar, onamizga quyosh chiqqanligini tezroq aytish niyatida osmondan ko'z uzmas edik"[56]. Ma'lumki, barsat (yomg'irlar fasli)da ko'p kunlar quyosh umuman ko'rinmaydi." Bir gal quyosh to'satdan ko'rinib qolganida bu haqda onamga xabar qilish uchun oyog'imizni qo'lga olib yugurganimiz sira esimdan chiqmaydi. U quyoshni o'z ko'zi bilan ko'rgani yugurib kelgandi, biroq quyosh yana berkinib olgandi va onam yana tuz tortmay qolavergandi. "Hech nima qilmaydi, - dadil turib degandi u, - bugun ovqat yeyishimni xudo xohlamayapti". Shunday deya yana o'z ishiga unnab ketgandi"[57].

Gandining onasining ismi Putlibay bo'lgan, Gandi onasi haqida yana shularni eslaydi. "Fikri tiniq ayol edi, u davlat ishlarini yaxshi bilardi hamda

[55]O'sha asar, 9 b.
[56]O'sha asar, 9 b.
[57]O'sh asar, 10 b.

devondagi ayollar uning aqlliligini maqtab gapirar va hurmat qilar edillar. Bolaligimdan foydalanib, men aksar onamga ergashib, devonxonaga borardim va uning thakur sohibning beva onasi bilan qizg'in suhbatlashganlarini haligacha eslayman"[58].

""Maxatma" - "buyuk qalb egasi" "Millat otasi" hindlar uchun Buddadan keyingi eng muhim inson. Uning ishlari, asarlari juda ko'plab tillarga tarjima qilingan, juda ko'plab markazlarda va insititutlarda uning mahorati, tajribalari o'rganiladi. Ko'plab kitoblar chiqariladi va konferensiyalar bo'ladi uning satyagraha usuli bo'yicha. U haqida sakkiz mingdan ortiq ishlar yozilgan. 2000 yil Bibisi radiyo so'rovnomasida "Ming yillik odami" degan e'tirofga sazovar bo'lgan"[59]. Sotsiologlarning hisob-kitobiga qaraganda, XX asrning birinchi shaxsi Albert Eynshteyn bo'lsa, ikkinchi shaxsi Mahatma Gandi ekan. Bu bejiz emas, albatta. Mahatma Gandi o'zining kechinmalarga boy hayoti bilan Hindiston xalqi uchungina emas, butun dunyo xalqlari uchun namuna bo'lib qoldi. Hind xalqining asriy mustamlakachilik zulmidan abadiy xalos bo'lishi aynan manashu g'oyaviy rahbar, davlat va siyosat arbobi, faylasufning fidokorona va jangavor xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq edi.

Buyuk Britaniyaning bosh vaziri Uinston Cherchill Gandini "yarim yalang'och faqir" deb atagan. Gandi Cherchillga nisbat berganda "tojsiz qirol"degan. Hindistonning buyuk o'g'loni Javaharlal Neru ma'lum qildiki, kimda kim, Mahatma Gandini Haqorat qilsa, hind xalqini tushunmaydi va bu bilan butun Hindistonni haqoratlaydi.

" Bu kichkinagina, jismoniy nimjon odam, - yozadi Neru, - qandaydir qattiq, mahkam qoya, hech qanday jismoniy kuch bilan zabt etib bo'lmas qoyadir. U buyuk ulug'vorlikka ega bo'lgan, qandaydir ichki kuchga ega bo'lgan insondir. U doim oddiy va ma'noli gapirgan, ortiqcha so'zsiz. Bu

[58]O'sha asar, 10 b.
[59]http://www.google//gandi.com

odamni eshitganda haqiqatda odamga zavq bergan va inson ichki olami nuravshonlashgan"[60].

"Gandining Janubiy Afrikalik tarafdorlari birinchi marta Hindistonga kelganda, uy bergan (Santinikentane) joy bergan Tagor – shoir, yozuvchi, Nobel mukofotining sovrindori va zamonaviy Hindistonning eng buyuk odamlaridan biri. U Gandini "Faqirona kiyimdagi Mahatma ("buyuk qalb")" deb atadi va bu nom Gandi – "mahatma" Hindiston xalqi uchun va butun dunyo uchun bir ramzga aylandi"[61].

Siyosat sohasidagi mening izlanishlarim faqat Hindistonda emas, balki qandaydir darajada butun "Tamaddunlashgan" olamga endi ma'lumu mashhur edi. Men uchun katta qimmat kasb etmas edi. Shu izlansihlarim tufayli olgan "Mahatama" unvoni men uchun yanada kamroq qimmatga ega edi. Bu unvon meni ko'pincha qattiq hafa qilar edi va meni qachon bo'lmasin suyuntirganini sira eslolmayman"[62].

Gandi ji bunga qarshi chiqishining sababi bor edi, u avom xalq ongida xudoning elchisi sifatida ayrim joylarda gavdalana boshlandi, qaysiki u mo'jiza yarata oladigan. Gandi hardoim birinchi navbatga oddiylikni qo'ygan, bu oddiylik sohta bo'lmasligi kerak deb hisoblagan. Odamlar bir odamni buyuk deb hisoblashi uchun o'zining sabablari bo'ladi. Gandi – boshqa buyuk odamlardan farqi – u buyuk bo'lib tug'ilmagan, lekin u o'zini shunday darajaga yetkazdi mustaqillik uchun kurashi bilan, va ikki sifat, haqiqatni sevish, insonlarni sevish bilan. Gandi o'zining hayoti bilan, inson o'z ishonchi va harakati bilan nimalar qilishi mumkin ekanini ko'rsatib bergan.

Ho'sh bu odam bunday natijalarga qanday erishdi? Bunday e'tiroflarga qanday sazovar bo'ldi. Nima uchun bu odamni butun dunyoda bunchalik hurmat

---

[60] Горев А. Махатма Ганди.- М.: Международные отношения, 1989. с 1.
[61] Датта Д. Философия Махатма Ганди. пер с анг А.В.Радугина.- М.: Издательство иностранной литературы. 1959. с-27.
[62] Gandi M.K. Mening hayotim.-T.:O'zbekiston, 2009. 4-b.

qilishadi?

”Mahatma Gandi falsafasini tushunish uchun, birinchi o’rinda bilish kerak, qaysiki u tug’ligan, qayerki o’sib ulg’aygan, uning hayoti o’tgan uchta kontenent – Osiyo, Yevropa va Afrika”[63].

Men Po’rbandar, yani Sudanpuriyda (hozirgi Gujarot)da 1896-yil 2 oktabrda dunyoga kelganman. Bolaligim ham o’sha yerda o’tgan. Birinchi marta maktabga borganim yodimda. Maktabda ko’paytirish jadvalini zo’rg’a yod olganman. Esimda faqat boshqa bolalar bilan o’qituvchimizga turli-tuman laqablar qo’yganimiz haqidagi taassurotlargina qolgani o’sha paytda aqlim g’o’r, xotiram esa, zaif bo’lganidan darak beradi.

”Kaba gandi to’rt marta uylangan. Dastlabki uch xotini o’lgan. Birnchi va ikkinchi xotinidan ikki qiz qolgan. To’rtinchi xotini Putlibay unga bir qiz va uch o’g’il tug’ib bergan. Men eng kenjasi edim”.[64] O’n uch yoshida Moxandasni o’zining tengdoshi Kastuba ismli qizga uylantirishadi. “Meni o’n uch yoshimda uylantirganlari haqida hikoya qilishni o’zimning og’ir majburiyatim, deb hisoblayman. Ixtiyorimda shu yoshli bolalarga qaraganimda o’z nikohimni eslayman, o’zimga rahmim kelib ketadi va bularning qismati menday emasligini o’ylab, sevinaman. Yosh nikohlarning bu qadar bemaniligini anglash mumkin bo’lgan hech qanday axloqiy sabab topolmayman. Kitobxon chalkash xayolga bormasin: meni unashtirishmagandi, balki uylantirishgandi. Kathiyovarda ikki xil marosim bor – unashtiruv va nikohdan o’tish. Unashtiruv – bu o’g’il va qiz bolani birlashtirishning ular ota-onalari oldindan qilgan ahd-paymon. Ahdu paymon buzilishi mumkin. O’g’il bolaning o’limi, qiz bolaning beva qolishini bildirmaydi. Bu ota-onalar o’rtasidagi bitim bo’lib, bolalarga mutlaqo taalluqli

[63]Датта Д. Философия Махатма Ганди. пер с англА.В.Радугина.-М.:Издательство иностранной литературы. 1959. с-14.
[64]GandiM.K. Meninghayotim.-T.: O’zbekiston.2009. - 8b.

emas".[65]Gandi uch marta unashtirilgan. Gandiga unashtirilgan qizlar birin-ketin o'lib ketishgan. Gandini yetti yoshda birinchi marta unashtirishgan edi.

"Avval aytganimdek, bizlar uch og'aini edik. Bu paytga kelib to'ng'ichimiz oilali edi. Ota-onamiz birvarakayiga mendan ikki-uch yosh katta bo'lgan o'gay akamni, amakivachcham va meni ham uylantirishga qaror qilishgan. Bunda ular bizlarning farovonligimizni uncha o'ylashmagan, xohishimizni-ku gapirmasa ham bo'ladi; ular faqat kattalarimizdagi qulayligu, iqtisodiy jihatlarnigina e'tiborga olishgan".[66] Gandi bular haqida qayg'u bilan eslashi bekorga emas edi. U bunday rasm- rusum hind xalqi uchun juda katta qiyinchiliklar tug'diradi deydi.

Gandi o'z xotini bilan yashab bir biriga sekin asta ko'nika boshladi. Garchand ularning yoshi teng bo'lsada, Gandi o'z erlik obro'yini tiklashga shoshilar edi. Gandi o'zi shunday yozadi: "Men nikohdan o'tgan vaqtlarda narxi bir paysalikmi yo bir paylakmi (aniq esimda yo'q) uncha katta bo'lmagan kitobchalar bosilardi. Ularda er-xotinlik muhabbati, hushyorlik, bolalar nikohi va hokazolar to'grisida gapirilar edi"[67]. Ularni Gandi boshdan-ayoq o'qib chiqardi yoqmagan joylarini unitardi, yoqqan joylarini esda saqlab qolar edi. Bu kitoblardagi erning xotiniga bir umr sodiq bo'lishi kerak degan gaplari uning qalbida muhrlanib qoldi. Gandi "Madomiki, men vafodor ekanman, xotinim ham menga vafodor bo'lishi kerak", - deb o'ylar edim, deydi. Bu fikr Gandini juda rashkchi qilib qo'yadi. Gandi xotinini juda tergar, unga juda qattiq turar edi. Lekin Kasturbay ham anoyilardan emas edi, u qayoqa xohlasa va qachon xohlasa ketaverishni istardi. Lekin Gandi hayoti boshdan-ayoq iztiroblardan iborat ekan deyish noto'g'ri. Uning barcha qattiq qo'lliklari muhabbatdan kelib chiqardi. U xotinini a'lo darajadagi xotin bo'ishini istardi. Unga sof hayot

[65]O'sha asar, 12 b.
[66]O'sha asar, 13 b.
[67]O'sha asar, 15 b.

kechirishga, o’zim o’rgangan narsalarni o’rgatishga, men bilan bir xil yashab, bir xil fikr yuritishga majbur bo’lishini o’z oldimga maqsad qilib qo’ygandim.

Kasturbay o’zi shunga intilarmidi yo yo’qmi – buni bilmas edi Gandi. Kasturbay savodsiz bo’lgan. Tabiatan u oddiy, mustaqil, tirishqoq va juda og’ir-vazmin bo’lgan.

Gandi jining haqiqiy hayotini ko’rib chiqadigan bo’lsak, u tajribalarga boy ishlarini to’liq bo’lmas edi, agar uning xotini Kasturbayni aytib o’tmasak bo’lmaydi, qaysiki doim u bilan birga bo’lgan, uning ishlarida ko’maklashgan. Kasturbay Gandining hayotdagi do’sti va bolalikdan ruhiy yaqini edi. “Ular birgalikda o’sib ulg’aydi, ham aqliy, ham ruhiy, birgalikda to’rt o’g’ilni va bir asrabolingan “Dahlsiz” (dallit) qizni, birgalikda g’amho’rlik qildi, tarbiyaladi, o’sib ulg’aytirdi, boshqa milliy oilalar kabi va Janubiy Afrika va Hindistonda yashadi”[68]. Kasturbay Gandi oddiy hind ayoli bo’lgan, hech qachon Gandidan biron narsa talab qilmagan.Ular ikki bir butun jon edi,bir biridan hechqachon ayrilmas edi. Ular hamma yoqda doimao birga: Hindistonda, Afrikada, Uyda va Ashramda, oshxonada va qamoqda. U Gandi bilan hamma mashaqqatli imtihonlar va urushlarda, hayot yo’lining boshlanishida, tinchilk paytida va qiyinchlikda unga ko’maklashdi. Bu bilan u muhabbat va Xudoga hizmat qilish yo’lida o’z eri bilan birga insoniyatga hizmat qildi. Gandining Insoniyat oldidagi hizmatida albatta Kasturbayning xizmatlari ham o’z ahamiyatiga ega. U yana shunday ham yordam berdiki, ruhiy muhabbati, hamma quvvatini o’z erining hayot yo’liga bag’ishladi. Gandi uchun ba’zida u ho’jayin ham bo’lgan va o’z aytganini qildirgan. Masalan, Gandi juda qattiq kasal bo’lib qoladi. Ichburug’ bo’ladi, o’lim yoqasiga keladi, Hech bir shifokor unga muolaja o’tkazishga va

[68]Датта Д. Философия Махатма Ганди пер с анг А.В.Радугина.- М.: Издательство иностранной литературы, 1959.- с. 26.

uni ovqatlantirishga buyira olmaydi, faqat hotini echki suti ichishga majbur qiladi, qutqarib qolishi uchun[69].

Amerikalik Lyis Fisher, yozadi: “Gandi odamlardan, hukumatdan, qamoqdan, qashshoqlikdan, o’limdan qo’rqmagan. Lekin u o’z xotinidan qo’rqqan” Bu ham Gandi oilasidagi muhabbatning bir ko’rinishi. Hind xalqining otasi Gandi bo’lsa, Hind xalqi uchun Gandi juda qadrli zot bo’lsa, Kastyrbay ham Gandi uchun eng sevimli odam edi.

Gandining to’rtta o’g’li bo’lgan: Xarilal (1888-1949), Manilal (1892 yil oktabr-1956), Ramdas (1897-1969) va Devdas (1900-1957) Katta o’g’li Xarilal jigar serozoidan vafot etgan. Qolgan o’g’illari otasi ortidan kurashgan, Hindiston ozodligi uchun harakat qilgan.

Gandi maktabni bitirish imtihonlarini 1887 yilda topshirdi. Gandining ota-onasi hoxlardiki, o’g’li kollejga kirishini. Bu paytda Kollejlar Bavnagar va Bombeyda bor edi. U Bavnagardagi Samaldas kollejiga borishga qaror qiladi, chunki bu arzonroq edi. Kollejga kelganda u butunlay gangib qoladi. U buni shunday izoxlaydi: “anglash uyoqda tursin, maruzalarni tinglash ham men uchun g’oyatda qiyin edi. Ayb birnchi darajali xisoblangan o’qituvchilarda emas, balki o’zimda edi, chunki, mutlaqo tayorlanmagandim. Birinchi semestirni tugatgach, uyga qaytdim”[70].

Gandilar oilasining eski do’sti va maslahatchisi jaynist Brahman Mavji Dave edi. U bilan do’stona aloqalari Gandining otasi o’lgandan keyin ham saqlanib qoladi. Gandilarning uyiga kelganda, Gandi ta’tilda bo’ladi. U Gandi Samaldas kolejida o’qiyotganini eshitib, unga o’z maslahatlarini beradi. Gandini Hindistonda emas, Anglyada o’qishini maslahat beradi. Chunki sizlardan biringiz vazir bo’lishingiz kerak, hozir zamon boshqa, by yerda o’qib bitirib vazir bo’la olmaysan deydi. Brahman uni u yerda huquq sohasida o’qishga

[69]Izoh. Hinduizmda sigir va buval muqadass bo’lgani uchun, Gandi ularning sutini ichishdan bosh tortadi. Unga go’sht yeyishni ham taklif qilishadi. Tovuq go’shtini ham yemaydi.
[70]Gandi M.K. Mening hayotim.-T.:O’zbekiston.2009 .- 27.b

undaydi, lekin Gandi bu yerda huquq sohasidan zerikib, tibbiyotga o'qish uchun borish istagi borligini bildiradi. "Akam so'zimni bo'ldi: otamiz doimo shu kasbni yomon ko'rar edi. Vishnuparastlar o'liklarni yorish bilan shug'ullanmasligi kerak deb, seni nazarda tutib aytar edi. Otamiz seni oqlo'vchlik kasbi uchun mo'ljallab yurar edi"[71].

Gandining amakisi esa, din borasida tashvishda ekanligini aytadi, chunki katta-katta oqlovchilar juda boshqacha ekanligini, ular hamma narsani yeyaveradi, sigareta ham chekadi. Kiyimlari ham ovro'pacha deydi. Sen avvalom bor onangdan ruxsat olishing kerak deb aytadi. Onasi juda dindor bo'lgani uchun u avvalida jiddiy qarshlik ko'rsatadi. Onasi Gandilar oilasining yana bir do'sti jaynist Becharji Svamiy bilan maslahtlashib ko'radi. U bu ishni yoqlaydi va Gandiga qasam ichtirish marosimini qiladi. "Men bolani uch narsaga qasam ichtiraman, shunda unga ruhsat bersa bo'ladi. Umarosim uchun hamma narsani shay qildi va men sharobga, ayolga va go'shtga daxilqilmayman, deb ont ichdim. Shundan keyin onam menga ruxsat berdi"[72]. Shundan so'ng Gandi Angliyaga yo'l oladi va bu qasamlarga zid hech qandaynomaqul ish qilmaydi. Bir marta u juda kasal bo'lganda ham, yani sovuqdan go'sht yeyishdanbosh tortadi. Chunki u onasiga qasam ichgandi.

Shu tariqa u 19 yoshida 1887-1891yillarda Londonga huquqshunoslik sohasi bo'yicha o'qishga yo'l oladi. Angliyadagi hayot butunlay boshqacha edi. Kiyinish, oziq-ovqatlar, hammasi boshqacha va buyer boshqacha madaniyat edi. Boshida u bilmas edi, o'zini qanday tutish kerakligini va unga bu juda noqulaylik tug'dirar edi"[73]. Keyin sekin asta Gandi bu yerga ko'nika boshladi. Mahatma Gandi Londonda, bo'lajak yurist, Har xil harakatlar bilan tanishdi. U ateist bo'lmasada, Angliyada mashhur bo'lgan Charls Bredlo ateistik qarashlari

[71]O'sha asar, 28b.
[72]O'sha asar, 31. b
[73]Индия Перспективы Статя "В Память Махатме Ганди" Джйоти Солапуркар Январь-Март 2008. – с.35.

bilan tanishdi. Shuni ham qayd etish lozimki, Gandi 1889 yil ishtashlash harakatlarida ham qatnashgan.

Brioq bo'lajak Mahatma uchun eng muhim narsalardan biri, Londonda uni eng qiziqtirgan harakat bu vegetarianlik bo'ldi[74].

Gandi o'zining ovqatini, yani go'shtsiz oshxonani izlab yurishda shaharda bir restoran topadi. Bu yerda vegetarianlik ovqatlari pishiriladi va bu haqda adabiyotlar tarqatilardi. U bu yerdan Soltning kitobini harid qiladi "Vegetarianlikni himoya qilish"nomli va bu yerda ko'p odamlar bilan tanishadi. Gandi London Vegetarianlar jamiyati azosi bo'aldi va tez orada Ijrochi Komitet azosi ham bo'ladi. U jamiyatga mos emblema topishda yordam beradi. Gandi o'zi turgan tumanda ham vegetarianlik klubi ochadi va uning kotibi bo'ladi. Hind an'analari va ovqatlari haqida jurnalda yozadi "Vegetarianlar".

Yangi g'oyalar tarqaldi va targ'ib qilindiki,hayotda Angliya tarixida bunday holat oldin ham keyin ham, bo'lmadi. 1887 yil Mustaqil ishchilar partiyasi tuzildi. Fabrikalar jamiyatida Sidneem Vebbob va Bernard Shou sotsiolizm va ilmiy fikrni tarqatdilar. Brinchi jild "Kapital" Karl Marksning asari Angliyada 1887 yil paydo bo'ldi va ishchilar tabaqasi bibliyasiga aylandi. 1889 yolda Bernard Shou "Фабианские очерки" gazetasida bosib chiqildi. 1871 yilda nashr qilingan Darvinichlik asarini "Происхождение человека" davr nuqtayi nazaridan muhimligi muhokama qilingan edi. Kropotkina "O'zaro yordam" nomli maqolasini "O'n to'qqizinchi asr" nomli jurnalda chiqardi, yana Kropotkin o'z g'oyalarini Angliyada yoydi. Djon Raskin va Uliyam Morris dunyo sa'natida yangi yo'nalishlarni ochib berdi [75]. Bu harakatlar ham uning dunyoqarashida o'ziga xos o'rin tutdi.

O'qishni yakunlagach Gandi Hindistonga o'z sohasi bo'yicha ishlashga qaytadi va oradan 2 yil o'tgach Janubiy Afrikaga bir yillik kontrakt asosida

[74] Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и Гандизм.- М.:Иностранной Литературы,1960. – с.15.
[75]QarangНамбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и Гандизм.- М. :Иностранной Литературы, 1960.-.с.16.

ishga ketadi, biroq umrining ko’p qismini oilasi bilan Afrikada o’tkazadi. Aynan o’sha kezlarda u o’zi sodiqman deb yurgan hukmron britaniyaliklarning shafqatsiz mustamlaka siyosatini guvohi bo’ladi va endilikda Hindistonning taqdiri ham ayanchli tus olishi unga ayon bo’ladi. Ayni shu kezdan boshlab u barcha nohaqliklaru, kamsitilishlarga chek qo’yishga ahd qiladi.

Gandi ingliz mustamlakachilariga qarshi tinch namoyishlar o’tkazish, chet el tovarlarini baykot qilish, rasmiy mansab va unvonlardan voz kechish, soliq to’lashdan bosh tortish kabi kurashlarga jalb etadi. U bir necha marotaba qamoqqa olinadi 1922-1924, 1930-1931, 1942-1944 yillarda

Janubiy Afrikada qabul qilinayotgan yangi tartib va qonunlar mahalliy xalqni ochiqchasiga tahqirlash va xo’rlashdan iborat bo’lib, bu holat Gandini "Bu singari qonunlarga rozi bo’lgandan ko’ra o’lgan afzal" degan fikrga kelishiga sabab bo’ldi. Shunda Gandi hukumatga agar bunday qonunlar qabul qilinishda davom etsa, hukumatga nisbatan Satyagraha e'lon qilinishini aytib ogohlantirdi. Biroq yangi beshafqat qonunlar joriy etilavergach, Gandi boshchiligida butun Janubiy Afrikada Satyagrahalar boshlanib ketdi. Natijada ming minglab odamlar qamoqqa olindi, ommaviy noroziliklar bildirildi va oxir oqibat qamoqqa olingan Gandini hukumat ozod etishga majbur bo’ldi. 20 yillik kurashlardan so’ng Gandi o’z maqsadlariga erishdi va mahalliy xalqning huquq va erkinliklarini poymol qiluvchi barcha qonunlar bekor qilinishiga erishdi.

Endi navbat Hindistonga kelgandi, chunki Hindistonda ham ahvol Afrikanikidan yaxshi emas edi. Mustamlakachilar mamlakatni o’marishardi, haddan ziyod soliqlar Hindistonni rivojlanishiga to’sqinlik qilardi. Turli xil yig’imlar oddiy xalqni ocharchilikdan o’lishigacha olib kelgan va yerga ishlov berish tizimi butunlay izdan chiqqan edi hamda xalqning sillasi batamom qurigan edi.

Gandi Hind xalqiga mamlakatni qaytadan qurishning yangi yo’lini, taklifini berdi. Bu borada mustamlakachilar bilan hamkorlik qilmaslikni, davlat

muassasalarida boykotlar uyushtirish, xorijiy tovarlarni sotib olmaslik va soliqlarni to'lashdan bosh tortishni hamda shafqatsiz qonunlarga bo'ysunmaslik taklifini berdi. Bu nafaqat inglizlarning hokimiyati asosini yemirardi, balki Hindlarning ozodlik ruhini uyg'otardi.

Gandi uchun kuch ishlatmaslik insoniyat uchun kurash edi. Chunki kuch ishlatmaslik, bu nafaqat kuchlilarning pozitsiyasi, balki juda kuchli pozitsiyadir. O'z vaqtida Janubiy Afrikadagi mustamlakachi amaldorlardan biri Gandining tutgan yo'lini tan olib "Men sizni kuch ishlatishga o'tishingizni xohlayman. Chunki, shundagina sizga nisbatan qanday chora qo'llash ma'lum bo'lardi qolardi", degandi.

Gandining amalga oshirgan barcha sa'y-harakatlari evaziga, bir necha yillik qamoq jazolari, ocharchilik e'lon qilganlari va o'limdan qo'rqmasdan mardonavor borgani, inglizlarga nisbatan "Hindistondan ketinglar" siyosatini olib borishi samarasi o'laroq, 1947 yilda Hindiston ozodlikni qo'lga kiritdi.

Biroq asrlar davomida birga yashab kelayotgan xalqlarning endilikda Hindiston va Pokiston singari alohida davlatlarga ajratilishi oqibatida musulmonlar bilan hindilar o'rtasida mojarolar boshlanishiga olib keldi.

Mahatma Gandi hindular orasida qanday obro'-etiborga ega bo'lsa, musulmonlar orasida ham shunday obro'ga ega edi. 1947 yilda ikki davlat paydo bo'ldi. Avvalgi yagona davlat bo'linishi bilan birdaniga hindular va musulmonlar o'rtasida juda qattiq to'qnashuvlar boshlandi. 1947 yil Gandi uchun juda og'ir yil bo'ldi. U befoyda urushni to'xtatishni targ'ib qilardi, lekin, uni hech kim eshitmadi. 1948 yil yanvarida Mahatma Gandi ochlik elon qildi va urush to'xtamaguncha, hech narsa yemaslikka ahd qildi. U o'z qarorini shunday elon qildi: "O'lim men uchun ajoyib ozodlik bo'ladi. Modomiki, o'lish afzalroq, Hindiston ichidan vayron bo'lib borayotganini ko'rishdan ko'ra[76].

[76] Ганди М.К.Ревалюция Без насилия.-М.:Алгоритим, 2012. – с.6.

इतिहास सतत युद्रों का एक लेखा है, पर हम नया इतिहास बनाने की कोशिश कर रहे हैं। मैं ऐसा इसलिए कह रहा हूँ, क्यों कि जहां तक अहिंसा का सवाल है – मैं राष्टीय मानत का प्रतिनिधित्व करता हूँ। तलवार के सिद्रांत को मैंने खूब सोच-विचार करने के बाद छोड़ा है। उसकी सम्भावनाओं का मैंने हिसाब लगाया है, और मैं इस निष्कष पर पहंचा हूँ कि जंगल के कानून की जगह, प्रबुद्र प्रेम के कानून की स्थापना ही मनुष्य की नियति है।[77]

Tarjimasi

Tarix bu mutasil davom etib kelayotgan urushlarning guvohidir, Lekin biz yangi tarixni yaratishga harakat qilyapmiz. Men shuning uchun aytyapman, qachonki, Ahimsa haqida savol ko'tarilsa, men millatga vakillik qilaman. Qilich ko'tarish pirinsipini o'ylab, shu qarorga kelgandan so'ng uni tanladim. Uning imkoniyatlarini hisoblab chiqib shu xulosaga keldimki, yovuzlik o'rniga sevgi muhabbatni o'rnatish, bu insonning burchi. Insonga xos narsa bir-biriga sevgi muhabbatda bo'lishdir.

Hindistondagi barcha dinga mansub insonlarning birdamlikda tinch-totuv yashashlari tarafdori bo'lgan Gandi bu ommaviy kelishmovchilikni to'xtatish uchun juda ko'p harakat qildi. Gandining tutgan bu yo'li jamiyatda ish berdi. Besh kundan so'ng Dehlidagi barcha muxolifatchi partiyalar urushlarni to'xtatishga va'da berishdi. Gandi ochlik e'lon qilgandan bir necha kun keyin, diniy guruhlarning rahbarlari: "Biz ishontiramizki, bir birimizni hayotiomizni himoya qilamiz, o'zimizni va musulmonlarni, bunday vahshiyliklar qaytarilmaydi, ayniqsa Dehlida"

Lekin Gandi hindular va musulmonlarni qisman yarashtirishga erishdi. Asosiysi shunda ediki, terrorist hindular musulmonlar bilan birlashishga qarshi edi. "Hindu Maxasabha"[78] siyosiy tashkiloti, "Rashtra dal" va "Vashtriya

[77] □□□□□ □□ □□□ □□ 45, (□□□□□□ □□□□□ □□□□ □□ (□□□□ 65), □□□□ 388)

[78] Izoh.Hindu Mahasabha – "Buyuk hindular ittifoqi" to'liq nomi ("Akhil bharat hindu mahasabha" – " Bo'linmas Hindistonning buyuk hindular ittifoqi") – diniy tashkilot va siyosiy partiya irtijoiy tashkilot 1906 yil Musulmonligasiga qarshi tuzilgan bu partiyaning faoliyati asosan hinduilik diniy jamoalarini qo'lash, an'anaviy hinduilikni tiklash va hindular va musulmonlar o'rtasida ittifoq chiqarish. HMK rahbari Javahirlal Neru yozgan

svayam sveak” nomli terroristik guruhlari, urushni davom ettirishga qaror qildi. Shunda Dehlida Mahatma Gandi nufuzi ularga qarama-qarshi turdi. Shuning uchun Gandiga qarshi suyuqast rejalashtirila boshlandi, Buni boshida “Hindu Mahasabha” Rahbari, bombeylik millioner Vinayakam Savarkaram turdi. Savarkar Gandini hindularning “Hiylakor dushmani” deb elon qildi, gandichlik g’oyasi bo’lgan kuchishlatmaslikni esa, axloqsizlik deb atadi. Gandi nomiga ortadoksal hindular namoiyshlar ham o’tkazishdi. “Ulardan ayrimlari meni hoin deb hisoblamoqda. Boshqalari esa, meni ishontirish yo’li bilan xristianlikva islomga, chandalarga yon bosayotgan emishman”, - Gandi shunday deb yozgan edi.

Savarkar keraksiz deb bilgan falsafani yo’ldan olib tashlashga qaror qildi, qaysiki hind xalqi orasida juda mashhur bo’lgan ta’limot edi. Bombeylik millioner 1947 yil oktabrda o’zining ishonchli odamlaridan teraristik tashkilot tuzadi.

Birnchi bor Mahatma Gandi hayotiga suyuqast 1948 yil 20 yanvarda uyushtirilgan edi, u o’zining och qolishidan ikki kun keyin. Milliat otasi o’zining Dehlidagi uyida odamlarga maruza qilayotganda, Panjoblik qochoq Madanlal unga qo’l bola bo’mba uloqtirgan. Moslama Gandi jidan bir necha qadam narida portlagan, lekin hech kim jabr ko’rmagan[79].

Hindiston hukumati, bu nohush hodisadan bezovta bo’lib, Gandi ji uchun shaxsiy qoravullarni ko’paytirishni boshlaydi, lekin Gandi bu haqda eshitib bunga rozilik bermaydi. “Agar meni taqdirimga daydi o’qdan o’lish yozilgan bo’lsa, men buni hursandlik bilan qabul qilaman”. Ayni shu vaqtda uni yoshi 78 da edi.

1948 yil 30 yanvarda Gandi erta tongda uyg’onadi va Kanstitutsiya loyihasini tayyorlaydi, kongressga taqdimqilish uchun. Kun bo’yi hamkasiblari

---

edi, Hindu mahasabha” Tor tafakkurga ega bo’lgan kishilardir, ular oldinga ketish o’rniga orqaga ketadilar. “(J.Neru, Открытие Индии, Издательство иностранной литературы, -M., 1955, c. 419).

[79]Ганди М.К. Ревалюция Без насилия.- М.:Алгоритим 2012. - с.7.

bilan yurtning yangi qonunlarini muhokama qilib chiqadi. Kechki ibodat vaqti kelganida, u o’z jiyanlari hamrohligida uyining oldidagi maysazorga chiqadi.

Har doyimgidek, “Millat otasini” qarshi olish uchun olamon yig’ilgan edi. Ihlosmand odamlar uning yoniga kela boshlaydi, qadimgi an’ana bo’yicha, uning oyog’iga tazim qilgani. Shunday tazim qilayotganlardan biri Nathuram Godze juda ko’p tazim qiladi, uch marotaba o’q uzadi. Yiqilayotgan Mahatma, jiyanini ushlab “Jei Ram, Jei Ram”(E Xudo, E Xudo) so’zlarni takrorlaydi. Bu ism Gandini bolalikdan ruhlantirib kelar edi. Keyin qo’llarini ishora qilib qotilni kechiradi va vafot etadi. Bu soat 17:00 dan 17 daqiqa o’tganda sodir bo’ladi. Godze o’zini o’ldirmoqchi bo’ladi, lekin bu vaqtda odamlar unga tashlanadi, chunki hamma g’azabda edi. Shunda Gandining soqchisi uni g’azablangan olamondan qutqaradi va uni sud oldiga topshiradi. Qonun unga hukm chiqarishi uchun.

Hukumat tushundiki, qotillik bir odam tomonidan qilinmagan. Hukumatga qarshi juda puhta fitna bo’lgan. Sud oldida sakkizta odam javob berdi. Ularning hammasi qotillikda ayibdor etib topildi. Ikkitasini o’lim jazosiga hukm qilishdi, 1949 yil 15 noyabirda o’ldirishdi. Qolgan fitnachilar uzoq muddadtli qamoq jazosi olishdi.

Birinchi bob bo’yicha xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Hindistonda ijtimoiy-siyosiy jarayon nihoyatda og’ir bo’lgan bo’lib, hind xalqining ahvoli og’ir edi, ayniqsa, dehqonlar va mayda hunarmandlar ahvoli. Bu davrda Hindiston milliy ozodlik harakati namoyondalari va hind xalqining ilg’or fikrli insonlari millat kelajagidan tashvishda edi va millat turmushini yaxshilashga harakat qildilar. Ram Mohon Raydan, Tilak, Vivekananda, Tagor, Gandi, Neru, Abdul Kalom Ozod va boshqa ko’plab millat parvar insonlar. Ko’plab milliy ozodlik harakati vakillari millat yakdilligi uchun harakat qildilar.

Bu davrda maydonga hind xalqining eng buyuk insonlaridan biri Mohandas Karamchand Gandi chiqdi. U “Mahatma” nomi bilan barcha hindlarni o’z atrofida birlashtirdi va mustaqillik uchun harakat qildi. U yakka-yu yagona Hindiston birligi uchun kurashdi. Uning bu harakatlari oqibatida Hindiston ozodlikka erishdi.

U yashagan davr nihoyatda tahlikali davr edi. U bu harkatlarida o’zidan avvalgi davr faylasuf mutafakkirlariga tayandi. U Hindistondagi tizimni o’zgartirish kerakligini aytadi va bu yo’lda juda jonbozlik ko’rsatadi. Gandi Hindiston oldida juda katta muammolar borligini qayd qiladi. Birinchisi bu qaramlik bo’lsa, boshqalari Hindistondagi har xil an’ana va urf-odatlar bular ham Hindiston rivoji uchun katta to’siq edi. Ayniqsa kastachilik tizimi Hindiston uchun birinchi darajali dushmandir.

Uning hayot yo’li ham o’ziga xos tarzda kechganini ko’rishimiz mumkin. Mahatma Gandining oilasi o’ziga to’q va nufuzli oila bo’lganligi yuqorida takidlanib o’tildi. Uning hayoti yo’lidan ko’rishimiz mumkinki, tarbiya maslasi uning uchun muhim narsa edi. Inson shakllanishida tarbiya muhim ro’l o’ynaydi. Gandi hayotida ham shunday bo’ldi. Uning onasi juda xudojo’y ayol edi. Bu holat Gandida ham nihoyatda muhimligini ko’rishimiz mumkin. Uning dunyoqarashi shakillanishida nafaqat Hindistonda olgan bilimlari ,balki Angliyada olgan bilimlari ham ko’mak berdi. Uning Janubiy Afrikadagi faoliyati, uning siyosiy va falsafiy faoliyatining boshlanishi bo’ldi. Bu davr ham Gandi hayotida o’ziga xos davr bo’ldi. MahatmaGandi hindlarning ahvoli nafaqat Hindistonda ,balki boshqa o’lkalarda ham og’irligi uni tashvishga soldi. Tarixdan ko’rishimiz mumkinki, Mahtama Gandi faoliyati bekor ketmadi, u o’z nomini tarixga muhrlab ketdi.

II bob. Mahatma Gandining ijtimoiy- falsafiy qarashlar

2.1. Mahatma Gandining “Mening hayotim” asarida ijtimoiy-falsafiy qarashlar

“Mening hayotim” – tarjimai hol kitob. Ammo u faqat Gandi hayoti haqida emas, balki tarjimai hol bahoansida Gandi o’zining butun dunyoqarashini, o’zining maqasdini va falsafasini ochib beradi. Bu kitobni 1920 yillardan yozishni boshlagan. Bu asar Hindistonda birinchi marta ingliz tilida bosilib chiqqan, “The Story of My Experiments with Truth” Ahmedabad 1927-1929 yillar (yana “Autobiography” nomi bilan ham nashr etilgan). Ingliz tilidan to’g’ridan-to’g’ri o’zbek tiliga o’giradigan bo’lsak, “Mening Haqiqat bilan qilgan tajribalarim Tarixi” nomi bilan tarjima qilish mumkin. Ayrim kitoblarda ingliz tilidan rus tiliga bunday tarjima qilingan: “История Моих поисков истины”. Rus tilidan o’zbek tiliga o’girsak, “Mening haqiqatni izlashim tarixi” nomi bilan aytilsa bo’ladi. Lekin rus tilida tarjima “Моя жизнь” nomi bilan qilindi[80]. Bu asosan ingliz tilidagi “Autobiography” nashriga asoslangan deyish mumkin. Rus tarjimonlari uni “Tarjimai Hol” emas “Моя жизнь”, deb tarjima qilganini ko’rishimiz mumkin. Chunki asarda u o’z hayoti va faoliyatidan lavhalar yozadi. 1959 yilda Hindistonda nashir etilgan hind tilidagi nusxasi bunday nomalanadi: “सत्य के पयोग” (Satya ke Prayog) (Satya – bu haqiqat, kening qaratqich qo’shimchasi. Prayog- qo’lanilishi, ishlatilishi) buni o’zbek tiliga so’zma-so’z tarjima qiladigan bo’lsak “Haqiqatning qo’lanilishi” bo’ladi. Lekin bu kitob Amir Fayzulla tomonidan rus tilidan tarjima qilingani uchun bu kitob nomi o’zbektiliga “Mening hayotim” nomi bilan tarjima qilindi.

Gandi bu kitobda butun o’z faoliyatini yozib bordi. U bu asarda o’z hayotiga xolis yondashishga harakat qiladi. Bo’lgan voqealarni ham yoritishda asosan haqiqatga tayangan holda ish ko’radi. Asarda hech qanday mubolag’a yo’q, o’zbekcha variyantida tarjimon o’quvchiga tushunarli bo’lishi uchun

[80]Qarang: Намбудирипад Е.М.Ш. Махатма Ганди и Гандизм.- М.: Иностранной Литературы, 1960. – с.160 .

ayrim joylarda, ayrim so'zlarda o'zbek tiliga hos bo'lgan jumlalarni ishlatgan. Lekin bu yerda ma'no o'zgarmaganini ko'rishimiz mumkin, undagi falsafiy g'oylar o'quvchiga tushinarli tarzda ayon bo'ladi.

Kitob kirish bilan boshlanadi va Gandi har bir voqea va hodisalardan kelib chiqan holda ularga sarlavhalar qo'ygan holda yozadi. Masalan, U "Oilamizdagilar va qarindosh-urug'lar" nomi bilan nomlagan, unda Gandi o'z oilasi haqida ma'lumot berib borgan. Qolgan qismlari ham shu tarzda davom ettirilgan.

Besh yil muqaddam ishdagi eng yaqin o'rtoqlarim qistovi bilan men tarjimai holimni yozishga rozi bo'ldim. Biroq birinchi sahifani tugatib ham ulgurmagan edimki, Bombeyda g'alayonlar boshlanib ketdi va ishimni to'xtatishga majbur bo'ldim. So'ng qator voqealar sodir bo'ldi, ular meni Yervadi qamoqxonasiga tiqish bilan nihoyasiga etdi.[81] Qamoqxonada u oqlovchi Jerandas bilan birga o'tiradi, u esa Gandi jiga tarjimai holni yozishini taklif qiladi. Lekin qamoqdan muddatidan oldin chiqariladi va bu ish yana tugallanmay qoldi. Endi unga Svamiy Anand bu taklifni takrorlaydi, bu paytda Gandi Janubiy Afrikadagi Satyagrah tarixini tugatgan edi. U "Harijan"[82] uchun tarjimai hol yozishga kirishadi. Svamiy tarjiamai holni alohida kitob qilib chiqarishni xohlar edi. Gandining boshqa do'stlaridan biri unga buni yozmaslik taklifini ham bergan ,chunki tarjimai hol yozish bu g'arbga xos bo'lgan narsa, deb unga aytadi. Mahatma Gandi buni unchalik etiborga olmadi ,chuniki, haqiqiy tarjimai hol yozmoqchi emas edi. U shunday degan edi:"Haqiqatni qidirish tarixini shunchaki hikoya qilib bermoqchiydim, xolos. Bunday izlanishlar butun hayotim mazmunini tashkil etgani sababidan, ular bu haqidagi hikoya haqiqatdan ham tarjimai holga o'xshagan bir narsa bo'ladi-da. Biroq

[81]Gandi M.K. Mening hayotim.- T.:O'zbekiston,2009. - 3.b.
[82] Izoh"Harijan" – gazeta, M Gandi tashabbusi bilan 1933 yilda "Yosh Hindiston" birgalikda asos solingan, avval Punada bo'lgan, keyin Ahmadabodda ingliz tilida chiqa boshlagan; gazetaning asosiy vazifasi dahlsizlar(chandalar,неприкасаемых) va ularning boshqa kastalar bilan tengligini taminlash.

tarjimai holimning har bir sahifasida faqat mening izlanishlarim to'g'risida gapirishga qarshi emasdim". O'ttiz yil mobaynida Gandi faqat bir narsaga – o'z-o'zini anglashga intilib keldi. Bu yo'lda u Xudoga yetishish va oily haqiqatga erishishni istar edi. Gandi nimaiki gapirgan va yozgan bo'lsa hammasi, butun siyosiy faoliyati barcha-barchasi shu maqsadga yo'naltirilgan. Gandi bunda ma'naviy axloqiy masalarga ko'proq to'xtaladi.Ilohiy substansional g'oya Gandi dunyoqarashining dastlabki nuqtasi bo'lsa, Xudoga tenglashtirilgan haqiqat tushunchasi uning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tushunchalarining markaziy nuqtasi bo'lib gavdalanadi. U o'zining kitobida "Hayotni qanday boshlaganim" degan bobda Angliyadan kelib Hindistonda ish boshlaganini aytadi va o'z uyida olib borgan islohatlari haqida gapiradi. Yevropa unga shunday katta tasir ko'rsatdiki, u uyida Angliya urf-odatlarini qo'llay boshladi. Yashashda, ovqatlanishda, kiyinishda barcha-barchasida. Gandining do'stlari unga tajriba orttirish uchun Bombeyda va Oliy sudda biroz ishlab hind huquqini o'rganishni taklif qiladi. Gandi u yerda huquq sohasida ishlay boshladi. U shunday degan edi: "Men hayotni ana shunday boshladim. Men angladimki: oqlovchilik kasbi – yomon kasb ekan: soxtalik ko'p-u bilim kam bo'larkan. Menda masuliyat tuyg'usi o'sib bormoqda"[83].

Gandi dunyoqarashi Angliyada o'qigan vaqtida ancha o'zgargan edi. Janubiy Afrikada esa (1893-1914) u boshqa hayotni ko'rdi. Angliyadan kelgandan keyin u ikki yil o'z ona yurtida bo'ldi. Yuqorida aytganimizdek, Bombeyda va Rajkotda advokatlik sohasida ishladi va yana ingliz tilidan dars ham berdi. U o'zini topmagan edi o'z yurtida, bu yerdagi hayot unga zerikarli bo'lib tuyulgan edi. 1893 yil Gandini Janubiy Afrikaga ishga taklif etadilar. Bu narsa uning hayotida juda katta voqea edi. Bu yerda ishlash chog'ida u Hindistonlik hindlar bilan tanishadi. Gandi bu yerda ikki hamkor o'rtasida bo'layotgan sud ishini olib borish uchun keladi. Gandi sud ishlarini

[83]Gandi M.K. Mening hayotim.- T.:O'zbekiston, 2009. - b.52.

muvaffaqiyatli tugatadi va o’z yurtiga qaytishga taraddud ko’ra boshlaydi. U sudda g’olib chiqqani uchun Abdulla Shet bazm uyushtiradi va Gandi bu yerda o’tirib gazetada bir maqolaga ko’zi tushib qoladi “Hindlarning saylov huquqi” nomli sarlavha edi. Unda parlament ko’rib chiqishi kerak bo’lgan qonun loyihasi haqida eslatib o’tilgan edi, unga ko’ra, hindlar Nataldagi parlament a’zolarini saylash huquqidan mahrum etilgandi. Gandi bundan ajablanadi, chunki bu yerdagi hindlarga nisbatan bu nohaqlik edi. U o’zini yollagan Abdulla Shetga murojat qiladi, buni tushuntirib berishni, bu narsaga jurati yetmasligini aytadi. Shunday omillar Gandini Janubiy Afrikada qolib ish boshlashga va hindlarning qadr-qimmatini toptalishiga chek qo’yishga bel bog’laydi. Janubiy Afrikadagi inglizlar kaloniyalarida va Burlar Respublikasida kelib chiqishi Hindistonlik bo’lgan bir qancha o’n minglab hindular yashar edi.[84] Janubiy Afrikadagi Hind zodagonlari ham Gandini moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlashni bildiradi. Shu voqea uning Janubiy Afrikada hayoti tamal toshini qo’yishga asos bo’ldi. Bu yerdagilar shartnomadagi ishchilar bo’lib ular shahtalar va plantatsiyalarda ishlar edi. Bu vaqtda shatrnoma muddati – besh yil edi. Ularning butun ihtiyori mahalliy plantatorlar, shahta-kon egalari qo’lida edi. Hindlarning ayrim qisimlari janubiy Afrikada kichik va o’rta savdogarlar edi, ularning ishlari borgan sari kengayib borar edi. Lekin ularning huquqi toptalar edi.

Gandi uchun ijtimoiy jarayonda ish olib borishi uchun biror-bir tashkilot kerak edi. Abdulla Shet va boshqa zodagonlar bilan kelishib, Gandi yangi tashkilotni tuzadi. U shunday yozgan edi: “Uning uchun nom toppish juda qiyin bo’ldi. Uni hech bir firqa bilan qiyos qilib bo’lmas edi. “Kongress” nomi, mening bilishimcha, ingliz konservatorlari orasida urf emas edi, ammo congress Hindistonning hayotiy markazi hisoblanar edi. Men uni Natalda ommalashtirish niyatida edim. Bu nomdan voz kechish qo’rqoqlikni bildirar edi. Shunday qilib,bu masala bo’yicha o’z mulohazalarimni bayon qilib, yangi tashkilotni

[84] Камаров Э.Н., Литман А.Д. Мировоззрение Мохандас Карамчанда Ганди.- М.: Наука, 1969. - с.57.

“Natal Hind Kongressi” deb atashni maslahat berdim va 22 may kuni Natal Hind kongressi tug’ilgan kun bo’lib qoldi”[85]. Bu Tashkilot ish boshlab yubordi, unga kirish uchun badal to’lab kirilgan va o’n ikki funt sterlinglik obuna badali bo’lgan. Kaloniyada tuig’lib, ta’lim olgan hindlar bilan ishlash congress faoliyati jihatidan biri edi. Kongress homiyligi ostida koloniya ahli – hindlarning ta’lim olish masalalari bo’yicha Assotsatsiya tuzilgan edi. Kongress vazifasiga yana targ’ibot ham kirar edi. U Nataldagi Haqiqiy axvolni Janubiy Afrika va Angliyadagi inglizlarga va Hindistondagi bizning vatandoshlarrimizga tushuntirishdan iborat edi. Shu maqsadda ikki brashura yozligan edi. Birinchisi “Janubiy Afrikadagi barcha britaniyaliklarga murojat”,deb ataladi. Dalillarga tayangan holda u Nataldagi hindlarning umumiy ahvoli bilan tanishtirar edi. Ikkinchi kitobcha “Hindlarning saylash huquqi. Davat” deb atalib, unda Nataldagi hindlarning saylash huquqi tarixi qisqacha bayon etilgan.

Gandi shunday yozadi: “Qaynoq va sof qalb amrihech qachon beparvo qolmaydi. O’z shaxsiy tajribamda men bunga qayta-qayta amin bo’lar edim. Kambag’allarga xizmat qilish – qalbim amri ana shunday, qalbim meni har doim kamag’allar tomon tortib kelar edi va ular bilan bir jon-bir tan bo’lib ketishga imkon berar edi”[86].

Hatal Hind kongressi hali kaloniyaga butunlay tarqalmagan edi. U tashkil bo’lganiga uch-to’rt oy bo’lgan edi. Shunda Balsundaram voqeyasi sodir bo’ldi.

Gandining Janubiy Afrikadagi rasmana siyosiy faoliyati shundan boshlandi. Balsundaram shartnomadagi ishchi bo’ladi. Uning xo’jayni urib do’postlaydi, unga juda zarar yetadi va u Gandining oldiga himoya so’rab keladi. Sudda Gandi yutib chiqqandan keyin butun Kaloniyada hatto Hindistonda ham Gandining obro’si ko’tarilib, hamma undan najot kutadi. Gandining siyosiy

[85]O’sha asar, b 84.
[86]O’sha asar, b 86-87.

jarayondagi ishlari Hindistondagi milliy rahbarlarsiz borar edi. Gandi endi bu yerda mitinglar o'tkaza boshladi va hukumatga arznomalar yoza boshladi. Pretoriyada hindlarning katta namoyishida Gandi qatnashchilarni birlikka chaqirib "Hinduilar, musulmonlar, parslar, xristianlar, gujarotliklar, madrasliklar, panjobliklar, sikhlar va boshqalar o'rtadagi tafovutni unutinglar " degan edi. Nataldagi 1899 yilgi mitingda u aytgan edi: " To'grisi, imperiyada bizlar haq-huquqsiz kishilarmiz, lekin biz harakat qilyapmiz va harakat qilamiz o'z holatimizni yaxshilashga, fuqaro bo'lgan holda. Shunday siyosat bizning hammamizning Hindistondagi yo'lboshchilari, bu yerda ham bizning siyosatimiz shunday"[87]. Gandi Hind jamiyatiga murojaat qilib Janubiy Afrikadagi ishlarga yordam berishni so'raydi. U HMKning eng ko'zga ko'ringan rahnamolaridan biri bo'lgan Gopalom Krishnoy Gokhale (1866-1915) bilan juda yaqin do'st bo'lishadi. Hatto Gokhale o'zidan keyin Gandini hind jamaiyati vorisi qilib ketadi. 1901 yilda Kongressda Gandi Gokhale yordamida Rezalyutsiya qabul qildiradi Janubiy Afrikaga yordam berish uchun. 1901 yil Gandi " Hind jamiyatiga murojaat" nomli maruzasida aytgan edi: "Bizning usul Janubiy Afrikada shundayki, muhabbat nafratni yengadi. Shu bizning maqsadimiz"[88]. Shunday bo'lsada Gandi Ingliz hukumatiga yomonlik tilamagan. Siyosiy sohadagi o'zining liberalligini Gandi Bur urushida ko'rsatdi 1899-1902 yillarda bo'lib o'tdi. Gandi shunday yozgan edi: "Inglizlar hukumatiga nisbatan holisligim meni urushda inglizlar tarafida turib ishtirok etishga undaganini aytishim etarlidir. Bordi-yu, Britaniya fuqarosi sifatida huquq talab qilsam, o'z-o'zidan Britaniya imperiyasini himoya qilishda ishtirok etishim kerak, deb o'ylardim"[89]. Gandi bu urushda sanitar bo'lib qatnashadi va unga doktor But unga sanitarlar ishini o'rgatadi. Guruhda bir ming yuz nafar odamdan iborat bo'lib, shulardan qirqtasi komandirlar bo'lgan. Uch uyzga yaqini erkin hindlar

[87]Gandhi M.K. Satyagraha in South Africa, p.72.
[88]" The Collected Works…"vol.I, p.43.
[89]O'sha asar, b.117.

bo’lib, qolganlari shartnomadagi ishchilar bo’lgan. Hatto yaradorlarni zambilda 20-25 mil yurganlar. Bu guruhlarda ular yaradorlarga yordambergan, ularni jang maydonlaridan olib chiqqan va ko’plar jangchilarga ko’maklashganlar. Shuni ham aytib o’tish kerakki, Gandi o’z dushmanlariga ham shunday yordam bergan. Ham ulardan ozodlik so’rab namoyishlar qilgan edi. Urush paytida esa, ularga ko’maklashgan.“ Bizning kamtarona ishimiz o’shanda og’izga tushgandi va bu hindlarga bo’lgan e’tiborni oshirib yuborgandi. Ro’znomalarda bizning sharafimizga quyidagi naqorat bilan qasidalar chop etilgandi: “Ne bo’lsa ham bizlar Imperiya o’g’lonlarimiz”[90]. Urush tugashi bilan Gandi o’z faoliyatini yana boshlaydi.

Gandi o’zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tizimli tarzda kitobcha shaklida “ Hindiston O’z-o’zini boshqarishi yoki Hind svaraj” nomi bilan 1908 yilda gujarotiyda nashr etdi. Kelasi yili ingliz tilidagi nushasi ham chiqdi, tez orada uni Hindistonda taqiqlab qo’yildi.[91]

Gandi o’zining ijtimoiy konsepsiyasini, ishlab shiqish va uni taqdim qilshda XIX asr oxiri va XX asr boshidagi milliy ozodlik harakati namoyondalari kabi o’z pozitsiyasiga ega edi. Agarda Kumarasvami yetarlicha mufasal fikr yurutganida fabrika ishchilarining “manaviy va jismoniy tanazzuli”haqida gapirsa, Tagor, buni badiiy tarzda tushuntirishga harakat qiladi, Gandi oddiy qilib aytadi: “Bombey fabrikasining ishchilari qulga aylantirilgan”[92] Vibekananda aytadiki, saylovchilarning xohishiga qaramasdan, G’arbda hokimiyat boylarga tegishli bo’ladi[93].

1901 yilda Gandi birinchi martta Kallkuttada Kongraessga qatnashish uchun keladi. U avval Feruzshoh Mehta va m-r Vach bilan uchrashadi, ularga Janubiy Afrika uchun yordam berish masalasini ko’tarish uchun kelganini aytadi. Gandi

[90]O’sha asar, b.118.
[91] Камаров Э.Н., Литман А.Д. Мировоззрение Мохандас Карамчанда Ганди.- М.: Наука, 1969. - с.73.
[92] Ganhi M.K. Indian Home Rule or Hind Swaraj.- Madras, 1947,p. 96.
[93]Там же, с,76.

birinchi martta Kongress ishida qatnashadi va u juda ham hayron qoladi. Gandi shunday yozgan edi: “Kongress ishlagan muhit haqida batafsilroq hikoya qilib beraman. Ko’ngillilar bir-birini ayamay so’kar edilar. Bordi-yu, siz ulardan biriga bir ish topshirgudek bo’lsangiz, u buni boshqa bittasiga topshirar, u esa o’z navbatida, uchinchisiga topshirar edi va hokazo. Delegatlarga kelsak, ularning qo’lidan umuman bir ish kelmas edi. Ularning o’zlari hech ish qilmas edilar. “Hoy, ko’ngilli, uni qil, hoy ko’ngilli, buni qil”, - ular muttasil bir-birlariga shunday buyruq berar edilar, xolos”[94]. U bunday holatni ko’rib taajjubga tushadi, chunki jamiyatning buyerda yig’ilgan vakillari shunday ishqilsa kim kurashadi va qanday qilib millat oldinga siljiy oladi, deb o’ylagan edi. Gandi Hindistonning eng nozik va eng maqbul bo’lmagan jihati sifatida ko’radigan daxlsizlik bilan ham shu yerda duch kelishi ijtimoiy hayotning muammosi sifatida hal qilinishi kerakligini keyinchalik ham juda tanqid ostiga oladi. “Hatto shu yerda ham men Daxlsizlik muammosiga duch keldim. Tamillarning oshxonasi boshqa hammanikidan bir chetda joylashgandi. Tamil delegatlari yot odamlarning ular ovqatiga bir karra nazar tushishidanoq o’zlarini haqoratlangan deb his etar edilar”[95].

”Bordi-yu, Kongress delagatlari o’rtasida noittifoqlik mavjud bo’lsa, - o’yladim men uh tortib, - uning sababchilari orasida qanchalik tarqalganini tasavvur qilsa bo’ladi”. – degan edi Gandi [96].

Delegatlar tozalikka zid sharoitda yashashardi. Atigi ikki-uchtagina jamoat hojathonalari bor edi; u yerdan anqigan badbo’y hid haligacha dimog’imdan ketmay, nafratimni uyg’otadi. Men bu to’g’rida ko’ngillilarga aytdim. Ular menga keskin javob berishdi: Bu bizning ish emas, axlatchilarning ishi.

[94]O’sha asar, b, 120.
[95]O’sha asar, b,121.
[96]O’sha asar, b,121.

Men supurgi so'radim. Murojaat qilgan odamim menga hayron bo'lib qarab qo'ydi. Men supurgini oldim-da, hojatxonani tozalab qo'ydim[97]. Gandi shunday yozgan edi. Bu Uning qarashlarining bir bo'lagidir. Aytish mumkinki, millat otasi bo'lgan inson shunday ishqilsa. Hojatxonani tozalashni o'ziga ep ko'rsa, bu holat oddiy holat bo'lishi mumkin, lekin Gandining qanchalik sodda va samimiy, hokisor inson bo'lganining bir dalilidir.

Gandi Kongressda qatnashadi va Janubiy Afrikaga yordam uchun rezalyutsiyani o'qiydi. Go'khale va Feruzshoh yordamlari bilan bunga erishadi. Bu narsaning unchalik amaliy ahamiyati bo'lmasada, lekin unda umid uyg'otadi. Chemberlen Janubiy Afrikaga kelishi munosabati bilan Gandini Hindistondan chaqirib oladi. Bu yerda Gandi Chemberlenga Janubiy Afrikadagi hindlar ahvoli haqida ma'lumot berishi kerak edi. Gandining Chemberlen bilan uchrashishiga qarshiliklar bo'ladi.

U shunday degan edi: "Bizga Osiyo vakolatxonasi boshlig'idan xat keldi, unda men Durbanda m-r Chemberlen bilan ilgari suhbatda bo'lganim boisdan meni u qabul qilishi kerak bo'lgan vakillar tarkibidan chiqarib tashlash lozimligi aytilgandi".[98] Gandi o'zining harakatlarini sekin-asta yo'lga qo'ya boshlaydi. Yogannesburgda osiyolik amaldorlarning[99] tayanchi bo'lgan edi. "Men ularning hindlarni, xitoyliklarni va boshqalarni himoya qilish o'rniga ularni siqayotganlarini ko'rdim. Xudoning bergan kuni menga quydagi mazmunda shikoyatlar kelib tushadi: "Huquqi borlarni rad etadilar, garchi huquqi bo'lmasa-da, yuz funt sterlingga ruxsatnoma beraverishadi. Agar siz aralashmasangiz, unda dodimizni kimga borib aytamiz?"[100]. Gandi bu ishga jon-jahd bilan kirishadi chunki, u ularga yordam bermasam Trasvalda bo'lgandan nima naf

[97]O'shs asar, b,122.
[98]O'sha asar,b, 139.
[99]Izoh. Urush paytida Janubiy Afrikaga Hindistondan va Seylondan juda ko'plab amaldorlar, harbiylar kelgan edi, Britaniya hukumati ulardan janubiy Afrikada qolishini mo'ljalaydi. Hukumatga tajribali odamlar kerak bo'ladi, bu odamlar ayni muddao bo'lgan edi.
[100]O'sha asar, b,142.

edi, deb o'ylar edi. Ikki amaldorga qarshi dalillar to'playdi va sudga beradi, lekin ular ayibdorligi kunday ravshan bo'lsada, ularni oqlab yuborishadi. Chunki ular oqtanli bo'lib, sud hodimlari ularni ayibsiz topadi. "Bu mening hafsalamni pir qilib yubordi. Politsiya komissari ham juda afsus-nadomatda edi. Huquqshunoslik kasbi jonimga tegdi. Aql-idrokning o'zi ko'zimga balodek ko'rinib ketayotgan edi. Chunki jinoyatlarni yashirish uchun undan har qanaqangi iflos ishlarda foydalanish mumkin bo'lar edi".[101]

"Corruption will go when the large number of persons given to the unworthy practice realize that the nation does not exist for them, but that they do for the nation. It requires a hing code of morales, extreme vigilance on the part of those who are free from the corrupt practice and also have influence over corrupt servants. Indifference in such matters is criminal".[102]

Tarjimasi.

"Poraxo'rlik va karrupsiyaga mukkasidan ketgan kimsalar xalq ular uchun emas, ular xalq uchun xizmat qilishlari lozimligini anglab etmas ekanlar, bu razil odat davom etadi. Buni anglash insondan yuqori axloqiy kodeksni, bu illatdan xoli insonlarni hushyorlik bilan kuzatishni, bu kasallikka chalingan kimsalarga ta'sir o'tkazishni talab etadi. Korrupsiyaga nisbatan beparvolik ham jinoyatdir." Achinish bilan shunday degan edi Gandi.

Bu voqealar Gandining obro'yini ko'tarib yuboradi. Har jamoalarda Gandiga murojaatlar kelib tushar edi. Endi vaqt yetib kelgan edi. Gandi o'zining kitobida bir bobni bunga ajratadi. "Satyagrahning tug'lishi" nomli bobida u batafsil to'htalib shunday degan edi: " Yohannesburgadagi voqelalar shunday tus oldiki, poklanishni, aytish joiz bo'lsa, satyagrahga tayyorgarlik darajasiga aylantirildi. Endilikda "satyagrah" deb nomlangan tamoyilning o'zi bu atama paydo bo'lishidan oldin yuzaga kelgan edi. Dastlabki vaqtda buning nima

[101]O'sha asar, b, 143.
[102]Harijan: Feb.1,1947.

ekanini men o'zim ham bilmagan edim".[103]Gandi avval gujorotiy tilida inglizcha "sust qarshilik ko'rsatish" iborasidan foydalanadi. Ko'plab yevropaliklar bilan suhbatidan keyin bu fikrdan qaytadi. "Sust qarshilik ko'rsatish atamasi haddan tashqari tor ekan, ojizning kuchliga qarshi qurolini anglatar ekan, bu qandaydir nafrat bilan yo'g'rilgan bo'lib, oxirida zo'ravonlikka esh bo'lib ketar ekan. Men hind harakatining yolg'on talqinini ko'rsatishga va haqiqiy tabiatini tushuntirib berishga qaror qildim. O'z-o'zidan ravshanki, o'z kurashlarini ifodalsh uchun hindlar yangi atamani o'zlari topishilari kerak edi".[104]Gandi bu narsa haqida ko'p bosh qotiradi, lekin munosib atama topa olmaydi. Shunda u bunarsani "Indiyan opinon" mushtariylari orasida eng yaxshi ibora tanlovini o'tkazadi. Maganlal Gandi "सत्आग्रह" "satagrah"(सत् "sat"–haqiqiy, आग्रह "agrah"–qat'iylik) so'zini o'ylab topadi va mukofat oladi. So'zni tushinarliroq bo'lishi uchun "satyagraha"ga (सत्याग्रह)o'zgartiradi.Yani(सत्य– haqiqat,आग्रह-qat'iylik) o'zgartiradi. Haqiqat qatiylikda, degan ma'noda qo'llanila boshlandi.

Satyagraha uchun qo'llanma:

Satyagraha qarorgohi, Nadyad, 17aprel 1918 yilda

1. Ko'ngillilar shuni unutmasliklari lozimki, bu Satyagraha (haqiqat tarafdorlari) kampaniyasi bo'lgani uchun, ular har qanday holatda ham haqiqatga qat'iy amal qilmoqlari kerak.

2. Satyagraha kampaniyasida adovatga o'rin yo'q, bu esa o'z navbatida, satyagraha (haqiqat tarafdori) hech bir holatda keskin gapirmasligi lozim.

3. Satyagraha kampaniyasida qo'pollikka o'rin yo'q. Bizni o'z dushmanlari deb biladigan kimsalarga nisbatan ham nihoyatda ehtirom ko'rsatishimiz, qishloq aholisini ham shunga o'rgatishimiz kerak. Qo'pollik

[103]O'sha asar,b, 150.
[104]O'sha asar, b, 150.

bizning ishimizga zarar keltirishi mumkin va kurash yanada cho'zilib ketishi mumkin.

4. Ko'ngillilar shuni unutmasliklari lozimki, bu muqaddas kurashdir. Biz ushbu kurashga shu sababdan qo'l urdikki, agar biz bunday qilmaganimizda, bizning dxarma (yaxshi fazilat) mag'lubiyatga uchrar edi. Shuning uchun taqvoli hayot tarziga oid tamoyillarning barchasiga bu yerda ham amal qilinishi darkor.

5. Biz hokimiyatdan sarxush bo'lishga, ya'ni, hokimiyat organlariga emas, balki qonunlarni ko'r-ko'rona qo'llashga qarshilik ko'rsatamiz. Ushbu tafovut haqida unutmaslik kerak. Shunday ekan, bizning burchimiz – mansabdor shaxslarga o'z ishlarini bajarishiga ko'maklashishdir.

6. Biz bu yerda ham, oiladagi nizolarda amal etiladigan tamoyillarni qo'llashimiz lozim. Biz hukumat va xalqni bitta katta oila deb hisoblab, tegishli ravishda ish yuritishimiz kerak

7. Biznikidan farqli fikrga ega kimsalarga nisbatan nafratlanib, ularga boykot e'lon qilmasligimiz darkor. Bizda ularni o'zimizning hushmuomala fe'l-atvorimiz bilan o'z tarafimizga og'dirishga jasorat bo'lishi lozim.

8. Biz haddan tashqari aqlli bo'lishga intilmasligimiz kerak. Biz doimo samimiy va rostgo'y bo'lishimiz zarur.

9. Qishloqlarda qolib, ko'ngillilar mahalliy aholidan iloji boricha kamroq yordam so'rashlari kerak. Agar manzilga piyoda yetib boorish imkoni bor bo'lsa, transportdan foydalanishdan voz kechish lozim. Bizga eng oddiy ovqat berishlarini talab qilishimiz zarur.

10. Qishloqlarda yurganda, ko'ngillilar aholining moddiy ahvoliga ahamiyat berib, bo'sh vaqtlarida ularning kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilishlari kerak.

11. Imkoniyat tug'ilganda ular (ko'ngillilar) qishloq bolalari ta'lim olishi uchun sharoit yaratishlari lozim.

12. Agar ular (ko'ngillilar) kimningdir o'z sog'lig'iga zarar yetkazayotganini sezsalar, qishloq aholisining bu holga e'tiborlarini qaratishi kerak.

13. Agar ko'ngillilar qayerdadir bir-biri bilan tortishayotgan odamlarni uchratsalar, ularning nizolariga barham berishlari zarur.

14. Odamlarning bo'sh vaqtlarida, ko'ngillilarga satyagraxani targ'ib etuvchi kitoblarni o'qib berishlari lozim.

15. Satyagraha kampaniyasida hech qanday holatda ham qurol ishlatishga izn berilmaydi. Biz kuch ishlatmaslik yo'lini tanlaganimizni bir daqiqaga ham unutmasligimiz zarur. Satyagraha ko'ngilli ravishda azob chekish yo'li bilan istibdodga qarshi kurashish ma'nosini bildiradi. Bu yerda, boshqa birovga zarar yetkazish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Satyagraha albatta g'alaba qozonadi; u mag'lubiyatga uchrashi mumkin emas: buni har bir ko'ngilli anglab yetsin va odamlarga tushuntirib bersin.[105]

Gandi bundan keyin Janubiy Afrikada Satyagrahani boshlab yuboradi va bu yerda bir necha yil davomida kurashib Shartnomadagi hindlar uchun hizmat qildi. Oxir oqibat Janubiy Afrikadagi Ingliz hukumati Gandi bilan sulh tuzadi. Shundan So'ng Gandi o'z ona yurtiga qaytadi. Satyagraha haqida u yana shunday deydi:

सत्याग्रही के लिये पहले इस बात को समझ लेना ज़रूरी है कि मनुष्य जाति एक कुटुम्ब है और हमें मानव मात्र के सात प्रेम करना चाहिये। प्रेम करने वाला कभी किसी दूसरे से अनुचित लाभ नहीं उठा सकता। जिस आदमी के दिल में प्रेम है वह किसी भी चीज़ को तभी अपना बनाकर रख सकता है जब कि वह यह समझ ले कि जिस किसी मनुष्य को भी उस चीज़ की ज़रूरत हो उसे वह उतनी ही आसानी से मिल सकती है। सत्याग्रही का माग प्रेम से प्रकाशित है। उस में किसी दूसरे मनुष्य के शोषण की कोई गुंजाइश नहीं है।

[105]Индия Переспективы, Нью Дели, Январь-Март, 2008 г. с.31.

सत्याग्रही मनुष्य – मनुष्य के बीच न्याय कायम करना चाहता है। वह जानता है कि अपने विरोधी को मार डालने या डरा देने से यह मतलब पूरा नहीं हो सकता। किसी तरह काभी डर मनुष्य- मनुष्य के बीच नई-नई दीवारें खड़ी कर देता है। एक दूसरे को समझना और भी कठिन हो जाता है। इसलिये सत्याग्रही अपने विरोधी को मारने या डराने के बजाय खुद अपने ऊपर कष्ट भोगने का रास्ता अख्तियार करता है।

खुद अपने ऊपर कष्ट लेने क्या मतलब है सत्याग्रही का पहला उसूल प्रेम है। दूसरा उसूल यह है कि हम अपने विपक्षी के विचारों को बदलने के लिये अथवा उसके दिमाग़ तक पहुंचने के लिए उसके दिल में जगह करने की कोशिश करें इसीलिये सत्याग्रही जानबूझ कर और हंसने हुए कष्टों को झेलता है। सत्याग्रही इस बात को भी समझता है कि दुनिया का कोई भी अन्याय बिना पीड़ित की सहायता और सहयोग के कायम नहीं रह सकता।[106]

Tarjimasi.

Satyagraha uchun birinchi navbatda bu so’zni tushinib olish zarurki, insoniyat bir oiladir va biz hammamiz bir birimizga nisbatan muhabbatda bo’lishimiz kerak. Qalbida muhabbati bor inson biri ikkinchisidan foyda kutib yashamaydi. Qaysiki inson qalbida mehr-muhabbat bo’lsa har bir narsani o’zinikidek saqlay oladi, qachonki u tushuna olsaki, har qanday odamga ham biron buyum kerak bo’lsa, uni boshaqalar qo’lga kirita olishi kerak. Satyagraha yo’li mehr-muhabbat bilan yoritilib turadi. Fazo- Makonda boshqa insonga zulm qilishga hech kimning haqqi yo’q. Satyagraha insonlar o’rtasida adolat o’rnatishni istaydi. Gandi biladiki, qarama-qarshilikdagi o’z dushmanini qo’rqitish, o’ldirib yuborish bilan amalga oshirib bo’lmaydi. Har qanday zulm insonlar o’rtasida yangi-yangi devorlarni paydo qiladi. Bir-birini tushunish yanada murakkablashadi. Shuning uchun Satyagraha o’z dushmanini, o’ziga qarshi kuchni o’ldirish, qo’rqitish o’rniga, o’z-o’zini yuqori azob chekish yo’lidan boradi.

[106] □□□□□ □□□□□□□ □□□□□ □□□□□□, □□ □□□□□□ ,1994.b. 41-42.

O’zi azob chekish deganining manosi nima? Satyagrahaning birinchi yo’li mehr-muhabbatdir, ikkinchi yo’li o’zimizga qarshi bo’lgan odamlar fikrini o’zgartirish, uchun yoki uning aqliga yetib borish uchun ,uning qalbiga yetib borishga harakat qilishdir, Uning qalbidan mehr-muhabbat bilan joy olish mumkin. Shuning uchun Satyagraha hazillashib va hursandlik bilan azobga chidab keladi. Satyagraha yana shuni ham tan oladiki, dunyoda har qanday adolatsizlik azob, yordam va hamkorligi orqali vujunda kelmaydi”.

Gandini Gokhale boshchiligida “Hindiston xizmatkorlari” jamiyati azolari kutib oladi. Bu yerda Gandiga Gujorotda Ashram tashkil qilishga yordam berishadi va shu yerda o’z siyosiy faoliyatini boshlaydi. Gandi Po’rbandarga ketayotganida uchinchi klassda ketadi, chunki, uchinchi klass poyezd eng past bo’lib undsa faqat kambag’allar yurgan. Gandi aynan shuning uchun ham shunday qilgan. Buning yana bir sababi bor edi, uchinchi klassda yurish juda azob va mashaqqatli bo’lgan. Gandi Hindistonda satyagrahani darrov boshlamaydi.

- Hindistonda satyagrah zamoni keladi deb hisoblaysizmi? Agar kelsa, bu qachon bo’ladi? – so’radi u mendan.

- Aytish qiyin, - javob berdim men. – Men shaxsan besh yil davomida hech qanday chora ko’rmayapman, chunki tajriba to’plash uchun Go’khalega Hindiston bo’ylab safar qilishga so’z berganman.[107]

Gandi Hindiston bo’ylab aylanib chiqadi va xalqning hol-ahvolidan bohabar bo’ladi. “Hind svaraj” da Gandi mashinalarga qarshi edi: “Mashina – zamonaviy svilizatsiyaning asosiy ramzidir; u katta gunohning timsolidir”[108]U “hamma”sini rad etish kerak deydi. Angliyada fabrikada tikilganlarni ham. Hindiston milliy bozorini ingliz kapitali egallab olgan edi, ingliz matolariga

[107]O’sha asar, b, 171.
[108]Qarang. Камаров Э.Н., Литман А.Д.Мировоззрение Мохандас Карамчанда Ганди.- М. :Наука, 1969. - с.75.

nisbatan baykot elon qiladi. सवादेश (Svadeshi- o'z mamlakatiga oid) nomi bilan harakatlar olib borilgan. Gandi ip yigirib, mato tayyorlashni taklif qilgan. Agar Talstoychilar, har biri yer haydagan bo'lsa, Gandi har kim o'zi ip yigirishi kerak deb hisoblagan.[109] Gandi bunday qarorga nega keldi? Bu holatga u o'z kitobida shunday to'htalib o'tgan edi: "Qonun bo'yicha Champaramdagi ijaradorlar o'z dehqonchiliklari uchun ijaradagi yerning har yigirma beshta tomorqasidan uchtasiga indigo ekishga majbur edilar. Bu tizim "tinkatiya" deb atalardi, chunki bir akrni tashkil etuvchi yigirma kathdan uchtasi indigo ekiniga ajratilar edi. Iqror bo'lishim kerakki, o'sha vaqtgacha men Champaramning qayerda joylashganini bilish u yoqda tursin, bunaqa nomni sira eshitmagan ham edim. Indigo paykallari to'g'risida deyarli tasavvurim yo'q edi. Men indigo toylarini ko'rgandim, biroq uning Champaramda o'stirilishi va yetishtirilishi, bu mahsulot o'n minglab dehqonlarning og'ir mehnati evaziga yuzaga kelishi tushimga ham kirmagandi".[110]

Tagor Gandi haqida shunday degan edi: "Mahatma Gandi yu-joyidan mahrum bo'lgan millionlab insonlar eshigiga borib, ularning holidan xabar oldi. Ularga o'z ona tillarida murojaat qilib, kiyim-bosh berdi. Dovyuraklik bilan hindistonliklarni bag'riga oldi. Ularni o'z tanasi, qalbi deb qabul qildi. Shu alfozda haqiqat adolatning qo'ynida uyg'ondi".

Gandi shuning uchun Champaramga keladi va minglab dehqonlar bilan gaplashadi. Ijarador va plantatorlar Gandini zudlik bilan bu yerdan chiqib ketishini aytishadi, lekin Gandi bu yerdan ketmaydi. Dehqonlar huquqi uchun kurashadi va uni bu yerda qamoqqa olishadi. Hindistonda ham yoppasiga ommaviy namoyishlar boshlanib ketadi. Gandi hindlarning og'ir ahvollarini ko'rib, juda junbushga keladi. U o'zi ingliz liboslaridan voz kechishni taklif qiladi. Ingliz fabrikalarida tikilgan kiyimlarni kiymaslikka chaqiradi. Baykot

[109]Qarang Камаров Э.Н., Литман А.Д, Мировоззрение Мохандас Карамчанда Ганди.- М.: Наука, 1969. - с.75
[110]O'sha asar, b, 177.

elon qiladi,Kongressni ham shunga chaqiradi. Gandi “Hind Svaraj”da hind fabrikantlari ham noto’g’ri ish qilayotganini takidlaydi. Gandi Champaramda dehqonlar bilan birgalikda plantatorlarga qarshi kurashayotgan bir davrda, uni Ahmadobodga chaqirishadi Anusiya behn unga hat yozib to’qimachilarning ahvoli ham juda yomonligini, ularga yordam berish kerakligini aytadi. Gandi Ahmadobodga keladi, ishchilar bilan uchrashib ularning ahvollari haqida gaplashadilar, ular bilan yaqindan tanisha boshlaydilar. Bu yerda ham satyagraha boshlanib ketadi. “Shunda men ishchilarga ish tashlashni maslahat berishga majbur bo’ldim. Ishchilar va ularning rahbarlari bilan oldindan uzviy aloqa o’rnatib, qanday sharoyitlarda ish tashlash muvaffaqiyatli chiqshini tushuntirib berdim:

1) Hech qachon zo’ravonlik qilmasligi kerak;
2) Hech qachon shtreykbrehlarga tegmaslik;
3) Hech qachon mehr-muruvvatga umid qilmaslik;
4) Ish tashlash qancha davom etishidan qatyi nazar, ahddan qaytmaslik va ish tashlash vaqtida qandaydir boshqa halol yo’l bilan pul toppish.[111]

Gandi shunday qilib fabrika ishchilari orasida ham harakatlar boshlab yubordi. Gandi qishloqlarga ham alohida e’tibor beradi. Uning Hindiston bo’ylab safari natijasida qishloqlarda ko’plab hindlar yashashini hisobga olib, bu yerdagi holatni ko’rib, u yerda maktab, shifohona, ko’plab inshoatlar qurish kerakligi va qishloqlarni yaxshilash tarafdori edi. U o’z vaqtida shunday degan edi: “Hindiston qishloqlarda yashayapti”, qishloqlarni ozod qilish va ularni rivojlantirish zarur. U 1946 yil yozgan edi: “Qachonki bizning qishloqlar haqiqatdan ham rivojlansa, u yerda dangasa odamlar bo’lmaydi, qobilyatli odamlar bo’aldi. Bizda qishloq shoirlari, qishloq rassomlari, o’z arxitektorlari va

[111]O’sha asar, b, 192.

ilmiy odamlari bo'ladi. Qisqasini aytganda, qishloqlarda hamma narsa bo'ladi, nimaiki hayot uchun qadrli bo'lsa. Bugun qishloqlar – ancha-muncha go'ng. Ertaga ular jannatmakon daraxtzorlarga aylanadi. Bu yerda marifatli odamlar yashaydi, hech kim ularni alday olamydi yoki eksplutatsiya qila olmaydi".[112] Gandi Hindiston aholisining ko'p qismi bu yerda yashagani uchun u avval ishni agrar sohadan, yani yerdan boshlash kerakligini ko'rsatadi.

Gandi kastachilik tizimini qoralaydi va bu narsa Hind xalqi uchun yaxshi holat emas, deb qaraydi. U kastalarning biron-bir tanadan yaralganligi masalasiga unchalik salbiy munosabat bildirmasada, lekin uni tushinish va jamiyatga tadbiq qilishda tanqid qiladi. Chunki ma'lum bir odamlar buni o'z manfaati yo'lida qo'llashi mumkin deydi. Jamiyat uchun hamma mehnat turlari kerak deb hisoblaydi – aqliy, harbiy, savdo-sotiq va dehqonchlik va boshqa qo'l mehnatlari ham. Shuning uchun bu mehnat turlariga qanday haq to'lash kerak, shuning uchun ular o'rtasida ajratish bo'lishi kerak emas.[113]

To'rt kastachlik tizimida jamiyatda hammaga ish taqsimlangan." To'rt guruhning o'z vazifalari bor, lekin bu ularga hech qanday imtiyoz bermaydi. Hamma yaratilish shuning uchunki, Xudoga hizmat qiladi: brahmanlar- bilim, kshatri-himoya qiluvchi kuch, vayshiy-o'zining savdo-sotiq va shudralar- o'zining jismoniy mehnati"[114]

Bu shuni anglatmaydiki, kim, ilm bilan shug'illansa, bu uni jismoniy mehnat qilmaslik va boshqa ish qilishdan ozod etmaydi. Inson doim o'zi uchun o'zi xizmat qilishi kerak. Gandi shu maqsadda o'z ishlarini o'zi qilgan "Birinchi yuvgan yoqam sira esimdan chiqmaydi. Men uni keragidan ortiq oharlab yuboribman va kuydirib qo'yishdan qo'rqib, salgina qizigan dazmolni unga uribman. Yoqa ancha qattiq ekan, ortiqcha ohar esa, tinmay to'kilardi. Shu

[112] "Harijan", 10.XI.1946.
[113]Датта Д. Философия Махатма Ганди персангА.В.Радугина.-М.:Издательство иностранной литературы, 1959.-с.103.
[114]Там же, с,104.

yoqani taqib, sudga yo'l oldim, ko'rib, kasbdosh oqlovchilar qotib-qotib kulishdi. Biroq men endi pichingli kulishlarga e'tibor bermaydigan bo'lib qolgandim.

-Nima qipti, - dedim men, - axir bu mening yoqa yuvishdagi birinchi tajribam. Ortiqcha ohar surib yuborganim sababi shunda. Lekin bundan men zarracha xafa bo'lmayman, qaytanga sizlarni xursand qilganim qoladi.

- Axir bizda kirchi degani tiqilib yotibdi-ku, - dedi do'stlarimdan biri"[115].

Gandi ashramda ham shu narsaga amal qilgan u o'zi ham hotinini ham ashramda yashovchilar bilan bir hil maromda bilib hojatxonani tozalshni o'zi ham qilgan. Bir kun uni xizmatchi tozalasa, boshqa kuni o'zi tozalagan. Gandi shu ishlari orqali ham amalda kastachilikka qarshi chiqadi.

Yuqorida aytganimizdek, Gandi ko'plab namoyishlar o'tkaza boshlaydi. Gandi shunday yozgan edi: "Men qisqacha davatnoma yozib berdim. Hartol[116] avvaliga 1919 yilning 30 martida tayin qilingan edi, keyin esa,6 aprelga ko'chirildi. Aholiga hartol to'g'risida qisqagina xabar qilingan edi. Vaqt tig'iz bo'lganligi sababli butun aholiga keng xabar qilishning imkoni yo'q edi. Bular bari qanday sodir bo'lganini kim ayta oladi? Butun Hindiston u chekkasidan bu chekkasigacha, barcha shahar va qishloqlar – hammasi belgilangan kunda to'la hartol o'tkazdi. Bu ajoyib manzara bo'lgan edi!"[117] Gandi shu tarzda o'z harakatlarini boshlab yubordi va o'z intilishlari orqali Hindiston ozodligi uchun harakat qildi. Gandi o'zining kitobining Xayrlashuv qismida shunday deydi: "Endi qissamni tugatsam ham bo'ladi. Mening keyingi hayotim hammaning ko'z o'ngida shu darajada yaqqol kechdiki, unda xalqqa ma'lum bo'lmagan bironta ham voqea yoki hodisa topilmaydi.

[115] Gandi M.K. Mening Hayotim.-T.:O'zbekiston,2009. - 115. b.
[116]Hartol- ish tashlash.
[117]O'sha asar, b. 220.

2.2.Mahatma Gandining asarida qadimgi hind falsafasi g’oyalarining aks etishi.

Mahatma Gandi dunyoqarashi shakillanishida qadimgi hind falsafasining o’rni katta. Bunda asosan jaynizm unga tasiri kuchli bo’lganini ko’rishimiz mumkin. Gandi Gujorotda tug’ilgan. Bu yerda asosan jaynistlar yashaydi va Uning otasining do’stlari jaynizmga e’tiqod qiluvchilar bilan do’st bo’lgan. Gandilar oilasiga ko’plab janistlar kelib turishi va uyda bo’lgan ko’plab suhbatlar unga tasir qilganini ko’rishimiz mumkin. Hatto Gandining Britaniyada o’qishida ham oilaviy do’sti jaynist maslahat bergan edi. Jaynizmdagi axloqiy ta’limotlarning unga ta’sirini butun hayoti davomida ko’rishimiz mumkin. Biz jaynizmni avval ko’rib chiqishimiz kerak. U qachon paydo bo’lgan? Qanday ma’no-mazmunga ega? Undagi asosiy g’oylar nima? Axloqiy tamoyillari nimadan iborat?.

Jaynizm ta'limotiga asos solgan birinchi Rishabxa bo’lgan. Rishabxa yashab ijod etgan davrda, hali kishilar ovqat pishirishni, yozuv nimaligini, hunarmandchilikni bilishmagan. Jaynlarning ma'lumot berishlaricha, qadimgi xalqlarga bularning barchasini Rishabxa o’rgatgan. U shuningdek, nikohni joriy qilgan. Mayit(murda)larni ko’mishni, xudolarga sajda qilishni buyurgan. Jaynizm ta'limotining eng mashhur vakili - Maruramanana Maxaviradir.

Maxaviraning an'anaviy biografiyasi Buddaning biografiyasiga o’xshab ketadi. U ham podshohlar sulolasidan chiqqan, deb aytiladi. Maxavira Kashyap nomli podsho urug’iga taalluqli bo’lib, hozirgi Bixar shtatining shimoliy qismida tavallud topgan. U ham Budda singari 30 yoshida ota uyini tark etib, tarki dunyochilik qiladi. Maxavira o’n ikki yil davomida qalandar sifatida butun Hindistonni aylanib chiqqan, o’n uchinchi yili 43 yoshida oliy ilmga ega bo’lib, Jinna - " g’olib" degan nomga sazovor bo’ladi. Bu dunyoning ehtirozlarini yengib, najot yo’lini topadi. Shundan keyin ham 30 yil o’z ta'limotlarini targ’ib qilib keladi va ko’pchilikni o’z ta'limoti tomonga og’dirib, katta yutuqlarga

erishgan deyishadi. Maxaviraning ta'limoti nafaqat oddiy fuqarolarni, balki oliy amaldorlar va hatto podshorlarni ham diqqat e'tiborini tortgan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Maxavira eramizdan avval 527 yili vafot etgan. Jaynistlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Maxavira o'zidan keyin shogirdlariga 14ta kitob qoldirgan.

Eramizdan avvalgi III asrda Patiliputra shahrida bo'lib o'tgan umumjaynlar yig'ilishida jaynlarning "Sirdxatta" nomli qonunlar majmuasi tuzilgan va tasdiqlangan. Ulardan ko'proq taqsinga sazovori "Kalpasutra" hisoblanadi. Bu qonunlar majmuasida astronomiya, geografiya, kosmogoniya, xronologiya, haykaltaroshlik, musiqa, raqs haqida ko'pchilik nazariy va amaliy xarakterdagi ma'lumotlar berilgan. "Sirdxatta"da braxmalarni tanqid qiluvchi elementlar mavjud. Jaynizmda "Veda"ning muqaddasligi inkor etiladi, ular braxmanlarning urf-odatlari ustidan kulishadi. Masalan: Braxmanlarning fikricha, inson sovuq suvga tahorat qilsa komillikka erishishi mumkin emish. Agar shunday bo'lsa, unda qurbaqalar, toshbaqalar va ilonlar to'liq komillikka erishishlari mumkin edi. Aximsa agar jonzotlarga ozor yetkizmaslikka da'vat etgan bo'lsa, jaynistlar qurbonlik keltirishni qattiq qoralashgan.

Jaynistlar ayollarning monax bo'lishlariga va ilohiy kitoblarni o'qishlariga ruhsat berishgan. Braxmanlar bularni taqiqlashgan. Jaynistlar ma'budlarga emas, balki tritxankarlarga va jinna (g'olib)larga sajda qilishgan. Lekin shunga qaramay Jaynizm bilan Braxmanizm o'rtasida ko'p o'xshashliklar mavjud. Axmoqona ishlardan pirovard oqibatda hayotligida qutulish mumkin. Lekin eng asosiysi sansaradan qutulishdir. Jaynistlar dualistik ta'limotni ilgari surishgan. Ular jonsiz (adjiva) va jonli (jiva) haqida fikr yuritadilar. Jonli narsa jonlantiriladigan narsa bilan tenglashtiriladi. Jaynlar uchun yer ham jonlidir. Albatta, havo, suv, yer va shuningdek, o'simliklar ham his etish xususiyatiga ega, lekin qushlar, jonivorlar va insonlar beshta sezgi a'zolariga ega. Umuman, jiva (jonli) abadiy va o'tkinchi emas, lekin u ko'pincha turli-tuman moddiy

niqobga o’ralgan jonlarga bo’linib, bir tanadan ikkinchi tanaga o’tishi (sansara) mumkin. Biroq barcha jonli narsalarda bitta jon mavjud.

2- . Jaynizmning axloq tamoyillari

1. Jonli narsalarga ozor yetkazmaslik (Ahimsa).

Uning asosida barcha narsalar jonli degan ta'limot yotadi, chunki nafaqat hayvonlar ,balki o’simliklar ham jonga ega, " hayotga zarar" bo’lgan "jonga ham zarar"lidir. Chunki u oliy qudratdir. Bundan jaynistlar shunday xulosa chiqaradilar. Hayotning har qanday shakli, ya'ni jonli narsalarning har qanday shakllari bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo’lish kerak. Ahimsa ahdiga binoan ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik jarayonida ehtiyotkorlik talab etiladi, chunki yer chopilayotganida mayda jonzotlarni o’ldirib qo’yish mumkin. Hatto qurt- qumurqalarni o’ldirib yuborishlik ham katta gunohdir. Jaynistlar hatto ahimsa ahdini buzmaslik uchun biron bir chivinni yutib yubormaslik uchun og’zi va burunlariga doka tutib yuradilar. Jaynistlar uy hayvonlari va hatto erkinlikda yurgan yirtqich hayvonlarga ham g’amxo’rlik qiladilar. Hayotga bunchalik hurmat bilan qarashlik jon qanchalik kichik bo’lmasin u oxir-oqibat o’sha umumjonga aylanadi.

2. Yolg’ondan o’zini tiyish (Satya).

Doimo xaq gapni gapirish, gapirganda ham yaxshi, yoqimli va to’liq, hayotga hurmat yuzasidan qarab gapirish va gapirishning maqsadi haqiqat bo’lishi kerak. Ochko’zlik, qo’rquv, g’azab va shuningdek qo’pollik, haqorat, surbetlik, ahdga qarshi bo’lgan narsalardan qochish lozim. Satya ahimsadan madad oladi, chunki yolg’on hayotga zulm o’tkazadigan sabablarning bir ko’rinishidir.

3. O’g’rilikdan o’zini tiya bilishlik (Asteya).

Asteyaning asosini jaynistlar ahimsaga taqaydilar. Farovonlik hayotning tashqi pardasi hisoblanadi, uni buzishlik, hayotga zarar yetkazadi. Ko’rib turibmizki, birinchi uchta ahd boshqa kishilarning hayotga bo’lgan munosabatlariga taalluqlidir. Kishilarning bir-birlariga bo’lgan qarashlarini hamda insonning

tabiatga munosabatini belgilaydi. Keyingi ikki ahd erkinlikni qidirishga qaratilgan.

4. O’z istaklaridan erklarini tiyish (Braxmacharya).

Bu ahdning amalga oshishi uchun turmush qurishdan, har qanday hirsiy lazzatlanishdan, shuningdek, ma'naviy ojizlikdan, masalan, o’limdan keyin jannatga tushish umididan, umuman fikrda ijobiy his- hayajon tug’diradigan narsalardan voz kechishlik.

5. Barcha ko’ngil istaklaridan o’zini tiya bilish (Aparigraxa)

Bu kishida lazzat uyg’otadigan ob'ektlardan o’zini tiyishga da'vat etadi.

Jaynizmda ma'naviy ideal bu donishmand avliyo hisoblanadi. Bu ideallikni har bir kishi amalga oshirishi mumkin. Inson qaysi varna(toifa)ga taalluqli bo’lishidan qat'i nazar uning irodasi butunlay individning hukmida bo’ladi, chunki bu shaxsning ma'naviy kuch- qudrati orqali amalga oshadi.

Shuning uchun materiyadan xalos bo’lgan jiva qahramon (vira) hisoblanadi. Uning qalbi cheksiz bilimga, ishonchga, kuch- qudratga va huzur xalovatga ega bo’ladi.

3- . Jaynizm tariqatlari

Masalan: Magadxa shoxi Bimbisara (er.avv VI asr) buddist bo’lib, jaynizmni qabulqilgan. Shuningdek, jaynizmni Mauriya imperiyasiga asos solgan Chandragupta ham qabul qilgan. Rivoyatlarga ko’ra, umrining so’nggi yillarida Chandragupta qalandar-rohib bo’lib yashagan, ovqatdan o’zini tiygan. Bu rivoyatlar qanchalik to’g’ri yoki notg’o’ri ekanligini aytish qiyin. Lekin shuni ikkilanmay aytish mumkinki, Ilk O’rta asr davrida Jaynizm g’arbiy Hindistonda, Gujarot shtatida katta rol o’ynagan. O’rta asr davridan ko’pgina jaynistlar ibodatxonalari saqlanib qolgan. Bu jaynistlar jamoasi boy bo’lganligi, izdoshlari ham ko’p bo’lganligidan dalolat beradi.

Rohiblar bilan dunyoviy jaynlar o’rtasidagi aloqalar dastavval buddistlarga qaraganda mustahkam bo’lgan. Agar buddizm o’rta asrlarda Hindistondan

siqib chiqarilgan bo’lsa, jaynistlar ta'limoti saqlanib olgan. Hozirgi kunda jaynistlarning miqdori deyarli ikki million kishiga yetadi. Jaynistlar asosan Hindistonning Gujarot va Rajastxan shtatlarida istiqomat qilishadi.

Jaynlar asosan savdogarlar, sudxo’rlar, bankirlar va yirik tadbirkorlarni tashkil etadi. Agar ularni Hindiston aholisining nihoyatda ozchiligini tashkil etganini inobatga olganda ham hozirgi kunda jaynlar jamoasi mamlakat hayotida o’ziga xos mavqega egadir.

U aytadiki, dinning mohiyati axloqdir. Din Gandi dunyoqarashida nihoyatda yuqori o’rinda turadi. O’sha davr Hindistonning ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy hayotida eng umumiy va o’ziga xos tomoni diniy omil bo’lib, bu omil nafaqat xalqning keng ommasi ongida asosiy hodisa bo’libgina qolmay, balki ommaning milliy va ijtimoiy jipslashuvi bo’ilib mustamlakaga qarshi kurashda ta'sirchan vosita deb hisoblandi.

Ammo Gandi ta'limotida obyektiv ravishda diniy omilning roli ikkilamchi bo’lib qoldi, chunki asosiy maqsad milliy ozodlikka erishish omili edi. Gandi naqadar diniy e'tiqodi kuchli shaxs bo’lmasin hamda hinduizmga qanchalik fidokor va sadoqatli bo’lmasin hamda sanatana- hindu, ya'ni sof hinduizm muhlisi bo’lishga intilishiga qaramasdan, uning dunyoqarashi va faoliyati shuni ko’rsatadiki, diniy e'tiqod garchi uning tafakkurining asosini tashkil etsa-da, aniq siyosiy maqsad va vazifalar sari yo’naltirilgan edi. Gandi aynan diniy aqidalardan ilhomlanib, o’z siyosiy dasturini ifodalovchi shakllar va vositalarni o’sha manbalardan o’zlashtirib olar ekan, uning ushbu dasturi Hindistonning keng ommasi ongiga tez yetib bordi va hind xalqi ko’ngliga yo’l topa oldi. Diniy aqidalar va ularning tamoyillaridan Gandi mustaqillikka erishish dasturini amalga oshirish yo’lida foydalandi va bunga keng xalq ommasini safarbar qildi. U shunday degan edi: "Amaliy ishlarni nazarga ilmasdan ularni hal qilish uchun

qo’l kelmaydigan aqida bu aqida emas"[118]. Ushbu tushunchaga tayangan holda u o’zini "amaldagi idealist" ,deb e'lon qilib, turli falsafiy muammolarga nisbatan o’zining yondashuvida aqidani boshlang’ich nuqta, oliy mezon va nazariy tuzilmalar uchun doimiy asos deb hisobladi.

Diniy omil shakilanishi Gandining bolaligidan bo’lgan, u dinni men o’z enagamdan o’rganganman, u juda dindor bo’lib menga har xil duolar o’rgatar edi, deydi. Gandiga enagasi “Ramnom” duosini o’rgatgan. Gandining yoshligidan o’limigacha bu duo u bilan birga bo’lgan. “Otamga o’qib bersihganda “Ramayana” menda katta taassurot qoldirgandi. Uni Ramning katta muhlisi – bileshvarlik Ladh Maharaja o’qir edi”[119].

Gandiga Qadimgi hind adabiyotining bir qancha namunalari yoshlikdan malum bo’la boshlagan edi. Asardagi voqealar uning hayotiga ta’sir qiladi. Ayniqsa Ram o’brazi uni o’ziga jalb qiladi. “Ramayana”dan tashqari Gandi hayotida hind falsafasining yana bir namunasi bo’lgan “Bhavagad-gita” ham ta’sir ko’rsatdi.”Bir necha oydan keyin biz Rajkotga ko’chib o’tdik. U yerda “Ramayana”ni qiroat qilmas edi. Biroq har kechasida “Bhavagad-gita” o’qilar edi.[120] Bu holatlar uning diniy qarashlarida o’ziga hos o’rin tutgan.

Gandining falsafiy g’oyalaridagi dastlabki tamoyili Xudoni obyektiv ravishda inson irodasi va ongidan tashqarida mavjud, birlamchi voqelik deb tan olishdir.

Gandining tasavvurida Xudo bu shaklsiz absolyut, dunyoning asosi, butun dunyoning sababi va sarchashmasidir. "Xudo bu odam emas, u o’ziga xos kuch-qudrat. U hayotning sirasi. U pok va beg’ubor ongdir. U mangudir" - deb aytadi Gandi[121]. Yana o’z fikrini davom ettirib: "Mening uchun xudo bu haqiqat va sevgi; axloq va odob; xudo bu dovyuraklik. Xudo nur va hayot manbai va ayni

[118]Gandhi M.K. My religion.-Ahmedabad, 1955, p.4.
[119]Gandi M.K.Mening Hayotim.-T.:O’zbekiston,2009. – 24. b.
[120]O’sha asar,b 24.
[121]Pyarelal. Mahatma Gandhi. The Last Phase, vol. 1,- Ahmedabad, 1956.– P. 599.

paytda u bularning barchasidan ham tashqaridadir…"[122] degan fikrlarni ham bayon etadi.

Ushbu tarzdagi Xudoning mohiyatini birlamchi reallik deb baholashining boisi shuki, uning bayonlari holis e'tiqodga asoslanadi. Gandi, to'g'ridan-to'g'ri "Men Xudo deb aytganim sababli, men unga ishonaman. Idrok uni anglab olishga ojizdir. Mening mantiqimda turli-tuman taxminlar pado bo'lib, rad etilishi ham mumkin. Mubohasada balki meni ateist yengib chiqshi ham mumkin. Ammo mening e'tiqodim ongimdan ancha kuchliroqki, men butun dunyoga o'z da'voim bilan murojaat qilish va "Xudo bor va u mangu" deb aytishim mumkin"[123].

मेरे पास इस जगत में सत्य और अहिंसा के सिवा कोई दूसरी चीज़ नहीं है । आप सत्य और अहिंसा को पहचान लें तो दुनिया में बड़े बड़े काम हो सकते हैं। मैं कोई लम्बी चौड़ी बात नहीं करना चाहता। दुनिया में बड़ी बड़ी बातें हो ती हैं लेकिन ईश्वर का जो नियम है उसे कौन फेर सकता है और दुनिया में बड़े बड़े नियम हैं उन्हें ईश्वर फेर नहीं सकता। मैं समझता हूँ कि हम अभिमान में पड़े हैं, अज्ञान में पड़े हैं, इस लिये यह मान लेते हैं कि सत्य तो इतनी बड़ी चीज़ है कि वहव्यापार मैं कैसे चल सकती है ? व्यापार में कैसे चल सकती है ? अहिंसा चलेगी कैसे ? मुझे लोग गाली देता है तो मैं एक गाली तो दू। गाली के सामने थप्पड़ क्यों न लगा दू। इसके पीछे क्या होता है कि आगे नहीं बढ़ते हैं।

Tarjimasi

"Mening dunyoyimda Haqiqat va Ahimsadan boshqa narsa yo'q. Agar siz Haqiqat va Ahimsani anglay olsangiz, shunda Dunyodagi ko'plab narsalarning asl mohiyatini anglab yeta olasiz. Men baland parvoz gap gapirmoqchi emasman. Dunyoda shunda ham baland parvoz gaplar ko'p bo'ladi, lekin Xudoning kalomi borki, uni kim o'zgartira oladi va dunyoda o'z kalomlari bor. Ular Xudoning kalomini o'zgartira olmaydi. Men o'ylaymanki, biz

[122]Gandhi M.K. All men are Brothers.- Peris (UNESCO), 1958, p. 58.
[123]Gandhi M.K. Truth is God.- Ahmedabad, 1957, p.11.

o’zimizni yo’qotganmiz, biz g’aflatdamiz. Shuning uchun buni anglash mumkinki, Haqiqat shunday katta narsaki, U savdo-sotiqda qanday yuritioladi? Kundalik turmushda qanday qo’llaniladi? Ahimsa qanday olib boriladi. Meni odamlar haqorat qilsa, shunda bir hilgi odamlar aytishadiki, seni birov haqorat qilsa, sen ham haqorqtlagin. Bir birimizni haqorat qilishdan nima foyda, haqoratdan keyin musht bo’ladi va davom etib ketaveradi”[124].

U buni "insonning oxirgi maqsadi Xudoni anglash va butun faoliyatida - u siyosiy, ijtimoiy yoki diniy bo’lmasin Xudoni nazarda tutish oxirgi maqsad bo’lishi kerak"[125] - dey-di.

Ilohiy substansional g’oya Gandi dunyoqarashining dastlabki nuqtasi bo’lsa, Xudoga tenglashtirilgan haqiqat tushunchasi uning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tushunchalarining markaziy nuqtasi bo’lib gavdalanadi. Haqiqat muammosi ayni paytda mutafakkirning deyarli barcha asarlarini o’z ichiga qamrab oladi. U haqiqat tushunchasini asosan diniy-etik kategoriya sifatida tushunadi.

Ilohiy jins yohud absolyut haqiqatni ochib unga ega bo’lishning birdan bir yakkayu-yagona vositasi bu Gandi ta'biricha "sokin ichki tovushdir". "Xudo elchisi" maqolasida Gandi ochiqdan-ochiq e'lon qiladiki, ilohiy jins kunda insonga ochilib turadi, vaholanki, buni hamma tushuna olmasa kerak, chunki buning yakkayu-yagona sababi biz "sokin ichki tovushni tinglash o’rniga quloqlarimizni yopib olamiz". Gandi ayni paytda " Haqiqatni o’z ichidan izlab topish, unga amal qilish"da ushbu mo’'jizakor" "sokin ichki tovush"ga nihoyatda muhim rol ajratadi.

O’sha "tovush"ni tinglash jarayoniga olib boruvchi vositaga esa, Gandi taxminicha, "kuch ishlatmaslik" umumiy yo’l vazifasini o’taydi. Ammo boshqa mulohazalarida, aftidan, Gandi haqiqat va kuch ishlatmaslik tushunchalarini bir-biriga tenglashtiradi. Masalan, u " haqiqat va kuch ishlatmaslik xudoning boshqa

[124] □□□□ □□ □□□□□□, □□□□□ □□□□ 17 □□□□□□□, 1949.
[125] Gandhi M.K. All men are Brothers,- Ahmedabad, 1957, p. 11.

nomlaridir "[126], "barcha yumushlarning negizi haqiqatda bo'lsa, bu o'z navbatida menga kuch ishlatmaslikdek tuyuladi" [127] - deydi.

Gandining axloq konsepsiyasida markaziy va yetakchi g'oya bu Jaynizm diniy aqidasi va falsafasining ahimsa, ya'ni tirik jonga ozor yetkazishdan o'zini tiyish asosiy tamoyili Gandi tomonidan o'ziga xos tarzda talqin qilinib, betakror tushunchaga aylangan holda yuzaga keldi. U Hayotida bo'lgan bir voqeyani eslaydi va aytadi: "Uydan bir oltin baldoqdan bir parcha o'g'irladim va uni sotdik kichik akam, bilan chunki u 25 rupya qarz bo'lib qolgan edi. Xullas, bir amallab qarzni to'ladik. Lekin meni vijdon azobi qiynay boshladi. Endi hech qachon o'g'irlik qilmayman deb o'zimga o'zim so'z berdim va hammasi uchun otamdan kechirim so'rashga ahd qildim. Oxiri yozma ravishda tavba qailishga, bu tavbani otamga havola etishga va kechirim so'rashga jazm etdim. Otam bu paytda bemor edi: unda teshik yara bo'lib, qo'zg'almay yotishga majbur edi. Men unga xatni uzatdim-da, ro'paraga cho'kdim.

Otam xatni o'qib chiqdi-da, yig'lab yubordi. Inju tomchilari uning yuzidan dumalab, qog'azga tushardi. Bir daqiqaga u o'ychan ko'zlarini yumib turdi-da, so'ng xatni mayda-mayda qilib yirtdi. Xatni o'qiyotganda o'tirib olgan edi, endi esa, yana yotib oldi. Men ham ho'ngrab yubordim. Otamning qanchalik iztirob chekayotganini ko'rib turardim. Rassom bo'lganimda bugun ham bu manzarani chizib bo'lar edim – u xotiramda shunchalik aniq qolgan. Muhabbatning inju tomchilari yuragimni musaffo qilib, gunohlarimni yuvib yubordi. Shunday muhabbati bo'lgan odamgina uning nimalgini his etadi. Axir muqaddas bitiklarda ham: "Muhabbat o'qlari sanchilgan odamgina uning qudratini biladi", - deb bejiz aytishmagan.

Men uchun bu ahimsa bo'yicha amaliy saboq bo'ldi. O'shanda men sodir bo'lgan voqeada faqat ota muhabbatining zuhurinigina ko'rgan edim, ammo

[126]Tendulkar D.G. Mahatma, vol. 4, p. 190.
[127]Ўша асар, vol. 8, p. 157.

bugun bu haqiqiy ahimsa ekanini bilaman. Ahimsa keng qamrovga ega bo'lgach, u dahl qilgan hamma narsani o'zgartirib yuboradi. Oliyjanoblik bilan kechirib yuborish otamga mutlaqo xos bo'lmagan odat. Men uni jahli chiqadi, qovog'ini uyadi va meni boplab so'kadi, deb o'ylagandim. Lekin u haddan tashqari xotirjam edi"[128].

अहिंसा का माग कठिन तो है लेकिन उसका परिणाम स्थायी और दोनों के लिए ही शुभ होता है। मार का बदला मार से लेना तो चलता ही आया है। किन्तु उससे जगत् में न सुख बढ़ा है, न अन्याय और जुल्म ही दूर हुआ है। उसे मिटाने की कुंजी तो अहिंसा ही है – ऐसा मेरा अनुभव है।[129]

Tarjimasi.

Ahimsa yo'li mashaqqatli, lekin uning natijasi doimiy va ikki tomon uchun ham yaxshi bo'ladi. Lekin mushtga musht bilan javob berish davom etib kelmoqda. Biroq buning natijasida butun olamda na baxtli hayot bo'lmoqda, na adolatsizlik va jaholat yo'qolmoqda. Uni bartaraf etishning asosiy quroli Ahimsadir – Mening fikrim shunday.

"Ahimsa" Gandi qo'llashida siyosiy g'oyalarni g'oyaviy-ma'naviy isbotlash va asoslash uchun ifoda etilib, jiddiy siyosiy kuch, deb e'lon qilinadi. Gandi shunday yozgan edi: "Inson va uning qilmishi – turli-turli narsalardir. Yaxshi ish maqtovga loyiq bo'lsa, yomon ish – qoralanadi, yaxshi ish qiladimi, yomon ish qiladimi, bundan qat'iy nazar, odam vaziyat va holatga qarab yo hurmatga sazovar bo'ladi yoki achinishga. "Gunohdan hazar qil, gunohkordan emas".

Bu – garchi hamma yaxshi tushunsa ham, aslida kam amal qiladigan qoida. Butun dunyo bo'ylab nafrat og'usi yoyilib ketayotganining sababi shunda.

---

[128] Gandi M.K. Mening hayotim.- T.O'zbekiston,2009 . – 19. b.

[129] □□□□□ □□ □□□ □□ 42, (□□□□□□ □□□□□ □□□□ □□ (□□□□ 65), □□□□ 364)

Ahimsa – haqiqatni qidirish negizi. Agar ahimsaga tayanmas ekan, bu qidiruvlar behudaligiga har kuni ishonch hosil qilish imkoniyatiga egaman. Tizimni qoralash va unga qarshi kurashish – bo'lishi mumkin bo'lgan narsa, ammo uning muallifini qoralash va unga qarshi kurashish – kishi o'zini qoralashi va o'ziga o'zi qarshi kurashishi bilan barobar. Zero, hammamizning zuvalamiz bir jaoydan olingan, hammamiz bir yaratganning bandalarimiz va bizdagi ilohiy kuchlar chek-chegarasizdir. Odamzodni mensimaslik – demak, ilohiy kuchlarni mensimaslik va bu bilan faqat shu mavjudotning o'zigagina emas, balki jumlai jahonga yomonlik qilishdir"[130].

Gandining falsafiy-etik konsepsiyasining eng muhim kategoriyasi sifatida esa, sevgi olinib, bu kategoriya "ahimsa"ning nihoyatda ahamiyatli xususiyati va uning amalda halqiladigan ilhomlantiruvchi usuliga aylanadi. "Sevgi" va "rahmdillik", Gandi fikricha, barcha insoniy munosabatlarning poydevori bo'lishi kerak, "nafrat" hayotdan butkul olib tashlanishi lozim. "Sevish" tamoyiliga tayangan holda Hindistonda hindular va musulmonlar orasidagi alo qalar barqaror bo'lishi kerak, - deb ta'kidlaydi Gandi. "Men "Mahatma" nomimni shu ma'noda qarab chiqarkanman, men unda faqat odamlarga muhabbatni ko'raman. Bu esa, o'z navbatida, mening ahimsaga bo'lgan ishonchim sobitligi ifodasidan boshqa hech narsa emas" [131].

Ahimsaning ikkinchi ajralmas elementi bu "azob chekish" qonuniyatidir. Shu haqda Gandi aytgan so'zlariga binoan, "ahimsa"ga faol amal qilish jarayonida istar-istamas azoblar paydo bo'lishi muqarrarki, "ahimsa" muxlisi bularga ongli ravishda tayyor bo'lishi kerak. Bordi-yu odam o'z dushmaniga zarar yetkazmaydigan va unga kuch ishlatmasdan, "sevish" va "murosa"dan kelib chiqadigan bo'lsa, shunda u dushman tomonidan kutiladigan azoblarga barham berib, "sevish" kuch- qudrati bilan butunlay yengilmaguncha o'z o'rnida

[130]O'sha asar,b,144.
[131]O'sha asar,b,182.

mahkam turishi kerak.

1920 yil 16 iyunda e'lon qilgan "Azob chekish qonuniyati" maqolasining boshida "Bironta mamlakat azob chekishning poklovchi o'tidan" o'tmasdan o'z yo'lini topa olmagandir - deb bayon qiladi. Qanchalik azob chekish pok bo'ladigan bo'lsa, erishuv ham shunchalik kuchli bo'ladi. "Bunday azob chekishsiz erkinlikka erishish mumkin bo'lmaydi"[132] .

Ma'lumki, azob chekish qonuniyati, ya'ni "tapasya"ni bu qadar keng tushunib qo'llagan Gandio'z ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarini asoslash va tadbiq etish maqsadida Hindistonning ma'naviy hayotida asrlar osha chuqur ildiz otib rivojlangan diniy-falsafiy an'analarga tayanadi va shu bois uning ilgari surgan g'oyalari xalq ommasida ham keng yoyilib bordi. Bu haqda J. Neru shunday deydi: "Tapasya bu o'z nafsini tiyish xususidagi bu fikr barcha hindlar tafakkuriga xosdir. Ular yo savodli mutafakkir bo'ladimi, yoki savodsiz oddiy fuqaro bo'ladimi. Bu fikr xuddi ming yil ilgaridek xanuzgacha ham tirik, shuning uchun, Hindistonni larzaga soluvchi Gandi boshchiligidagi ommaviy harakatlar zamirida yotuvchi ruhiyatni tushunish uchun unga to'g'ri baho berib, qadriga yetish kerak"[133].

Taraqqiyotning eng umumiy maqsadlaridan biri, Gandi ta'biricha, ma'naviy-ma'rifiy "kamolot"dir. Ushbu xususiyatga ilohiy tus berib u ayni paytda unga insonning intilishi ham mumkin ekanligini va hatto amalda bu erishuvning ham ehtimolligini inkor etmaydi.

Bu yo'lda u birinchi o'rinda me'yor va tamoyil sifatida braxmachariya deb ataluvchi Jaynizmning diniy va falsafiy tamoyilini o'zlashtirib olgan holda ilgari suradi. Uning mohiyati ojiz-zaif xatti- harakatlarga yo'l qo'yishdan o'zini tiyish hamda insonda o'z fikru hayollari, so'zlari va harakatlarini qat'iyan idora etishidan iborat bo'ladi.

---

[132]Gandhi M.K. Satyagraha (Кучишлатмасданќаршиликкўрсатиш).- Ahmedabad, 1958, p. 115.
[133]Неру Дж. Открытие Индии. – М., 1955. – С. 95.

Gandi o’z kitobida ham bu masalaga bafurja to’xtaladi. Avvaliga u brahmachariyani jaynizm ta’limotidek, hirsiy tuyg’udan voz kechish sifatidagina tushunadi. ”Hatto men buni anglay boshlaganimdan keyin ham ikki marta muvaffaqiyatsizlikka uchradim. Mening muvaffaqiyatsizligim shu bilan izohlanar ediki, urinishim sabablari razil xossalarga ega edi. Mening asosiy maqsadim ortiq bola ko’rmaslik edi. Angliyada men homilaga Qarshi vositalar to’g’risida o’qigan edim”[134]. Bu narsalar haqida u ochiq oydin gapiradi va keyinchalik brahmachariyani faqat shaklini olmasdan uni jamiyatga tadbiq qilgan holda uning mohiyatiga e’tibor berish kerakligi haqida o’ylaydi. Gandi bu holatda uni butin bir hayotga tadbiq etish kerakligi haqida o’yladi. Nafs tuyg’ulari ustidan nazorat o’rnatish – barahmachariya qasamyodiga rioya qilishdagi bosh shart.[135]

Nafs tiyishda ozuqa masalasi mo’l-ko’l emas, balki oddiy shirinliklarsiz va iloji boricha qaynatilmagan bo’lishi kerak deb hisoblar edi. Brahmachariyada ro’zaning o’rni haqida ham gap boradi. Brahmachariyaga intilgan odam har doim o’z kamchiliklarini anglaydi, qalbining eng chuqur joyida yashiringan ehtiroslarni qidirib topadi va muttasil ulardan xalos bo’lishga intiladi.[136] Gandi bu jarayonda yana boshqa narsalarni ham ko’rdiki, o’z hayotini, butun faoliyati, bor jismoniy va ma’naviy holatini Hindiston mustaqilligi va hind xalqi uchun sarfladi. Shu omillar uning bu tushunchani keng qamrovli ekanini va Gandi uchun ahamiyatli ekanini ko’rsatadi.

Yana bir boshqa vositalardan uning falsafiy-etik konsepsiyasiga ko’ra jasorat, dovyuraklik muhim hisoblanadi. Mutafakkir o’git nasihatiga ko’ra, ahimsaga erishish va haqiqatga yetishish uchun insondagi qo’rqmaslikni kasb etish kerak.

[134]O’sha asar,b 108.
[135]O’sha asar,b 111.
[136]O’sha asar,b 114.

अहिंसा और कायरता परस्पर विरोधी शब्द हैं । अहिंसा सवश्रेष्ठ सद्‌गुण है, कायरता बड़े-से-बड़ा दुगुर्ण है । अहिंसा का मूल प्रेम में है, कायरता का घृणा में । अहिंसा सदा कष्टसहिष्णु होता है, कायर सदा पीड़ा पहंचाता है । विशद्र अहिंसा उच्च-तम वीरता है । अहिंसा व्यवहार कभी पतनकारी नहीं होता, कायरता सदा पतित बनाती है ।[137]

Tarjimasi

Ahimsa va qo'rqoqlik bir-biriga zid so'zlardir. Ahimsa oiliy yaxshilik sifati, qo'rqoqlik yomonlik sifati. Ahimsaning asosi muhabbatdir, qo'rqoqlikning esa nafratdir. Ahimsani qo'llovchi har doim sabrli bo'ladi, qo'rqoq esa, har doim ozor yetkazadi. Asl Ahimsa oily qahramonlikdir. Ahimsani targ'ib qiluvchi hech qachon mag'lub bo'lmaydi. Qo'rqoq hamisha mag'lub bo'ladi.

"Ahimsa"da " qo'rquv" so'ziga mutlaqo o'rin yo'q - deb qayd qiladi Gandi[138]. Dovyuraklik va jasorat insonda bo'lmasa, barcha boshqa ezguliklardan foyda yo'q, degan mulohazani Gandi alohida tilga oladi. Ammo jasorat kategoriyasi o'z dushmanlariga va yovuzlikka qarshi chiqish emas, balki o'zini qurbon qilib, azob-uqubatlarni ko'ngilli ravishda o'z bo'yniga olishdir. Gandi shuni takrorlaydiki, chinakkam, jasur odam jismoniy kuch ishla-tishga muhtoj emas, chunki u o'zini " haqiqat kuchi yoki idrok kuchi" bilan himoya qila turib har qanday havf-xatarga tik qarab turishi mumkin.

Ma'naviy taraqqiyotda " haqiqatgo'ylik" va "adolat" kategoriyalari ham tan olinadi. Birinchisiga muvofiq ijtimoiy turmushdagi axloqiy intizom va me'yorlarga amal qilish talab qilinadi.

Shu bilan birga ma'naviy tamoyillarni amalga oshirish va sinab olish jabhalarida odamlar aro mulkchilik munosabatlarining ahamiyati juda ham oshadi, deb tushuntiradi Gandi. Shuning uchun bu yerda u jaynlar ishlab chiqqan

[137] □□□□□ □□ □□□ □□ 42, (□□□□□□ □□□□□ □□□□ □□ (□□□□ 42), □□□□ 285)
[138] Tendulkar D.G. – Mahatma, vol. 5.–P. 38.

"aparigraxa",ya'ni (baxil bo'lmaslik) tamoyilini mezon qilib oladi. Boy-badavlat bo'lishdan ,albatta, aysh-ishrat va bekorchilik kelib chiqadi deb tan olib u ta'kidlaydiki, millionlab xalq hayot kechirishga eng oddiy imkoniyatdan mahrum bo'lgan holda axloqiy boylikni haddan tashqari orttirish braxmachariya tamoyiliga mosdir va bu baxil bo'lmaslikdir [139].

Gandi tomonidan oldinga surilgan tamoyillar "ro'za tutish etikasi" - deb nomlangan tushunchada o'z in'ikosini topadi. Ro'za tutish va shunga o'xshash ma'naviy tadbirlarni u ham etik, ham siyosiy jihatdan joiz deb hisoblardi, chunki bu nafaqat insonning aniq vaziyatdagi muomala me'yori, balki siyosiy kurashning qudratli vositasidir. "Satyagraha" harakatida ro'za tutishning rolini ahamiyatli deb bilib, o'zining kundalik faoliyatida Gandi aniq siyosiy maqsadlarga erishuvning hal qiluvchi usuli ,deb tushunardi.

Gandining butun falsafiy-etik ta'limoti tizimidagi eng asosiy tamoyil bu "kuch ishlatmaslik" tamoyili bo'lib, uning ahimsani talqin qilishidan kelib chiqib, nafaqat dunyoqarashi, balki ijtimoiy-siyosiy faoliyati uchun yetakchi tamoyil vazifasini o'tab keladi.

Ushbu ta'limot - falsafiy va ijtimoiy-siyosiy tamoyillarning majmuasida bunga eng keng qamrovli va universal xarakter berilib kelinadi, vaholanki uni talqin qilish hanuzgacha noaniq bo'lib kelmoqda. Jumladan, Gandi buni goho "ahimsa", goho "sevish kategoriyasi" bilan tenglashtiradi, haqiqat yo'lini esa, kuch ishlatmaslik yo'li deb ta'riflaydi.

Ammo umuman olganda, ushbu tamoyil gandiychilik ko'lamida shaxs va jamiyatning faoliyatida mustaqil, barchaga tegishli va universal tamoyil bo'lib gavdalanadi. Gandining ta'kidlashicha, bu tamoyil odamzodga majburan alla qayerdan tushirilmagan va aksincha, uning tabiatiga xos immanent (ichki) hodisadir. Ya'ni bu tushuncha odamzod qonuniyati bo'lsa, zo'ravonlik esa hayvon zotining qonuniyati. Boz ustiga, kuch ishlatmaslik shundayqonuniyat

[139]Pyarelal, Mahatma Gandhi. The Last Phase, vol. 1.- Ahmedabad, 1956, p.599.

bo’lgani tufayli ayrim harakatlarda qo’llanmasdan butun borliqni qamrab oladi[140] . Shunda faylasuf bu hodisannig faol xarakteriga alo hida urg’u berib, uni sustkashlik va bekorchilikka qarshi qo’yadi. U e'lon qiladi: "Kuch ishlatmaslik bu odamzod xizmatidagi buyuk kuchdirki, odamzod daholari tomonidan ixtiro etilgan eng qudratli yemiruvchi qurol-yaroqdan ham kuchliroqdir"[141] .

Umuman olganda, falsafiy-etik tamoyil sifatida bu tushuncha Gandi qarashida dastavval siyosiy faoliyat sohasiga tadbiq etiladi hamda satyagrahaning belgilovchi xususiyati deb ko’rsatiladi. Ayni paytda bu konsepsiya mazkur vosita (satyagraha)ning g’oyaviy-nazariy asosi qilib olinib, Gandi tomonidan Hindiston mustaqilligi uchun kurash jarayonidagi barcha boshqa usullarga alternativ tariqasida oldinga surilgan edi.

Mahatma Gandining “Mening hayotim” asari tarjimai hol asar bo’lib unda, Gandi o’zi haqida xolislik bilan yozadi. O’z hayotining past-balandlari, mayda-chuydalari, hammasi haqida ma’lumot beradi. Gandi bu asarda o’zining qarindosh-urug’laridan tortib, bolaligi va o’z faoliyati haqida bafurja ma’lumot beradi. Bu asar tarjimai hol shaklida bo’lsada, unda Gandining ijtimoiy-falsafiy qarashlari ham joy olganini ko’rib o’tdik.

Qadimgi hind falsfasi bo’lgan jaynizmning bir qancha tamoyillariga tayanadi Gandi. Kitobda ijtimoiy-faslasfiy jarayonlarni ko’p jihatlarda ko’rishimiz mumkin. Satyagraha bu tamoyil Gandi ijtimoiy-siyosiy qarashlarining markaizida turishini ko’rishimiz mumkin. Buning ma’nosi shundaki, kuch ishlatmaslikdir, yani dushmanga kuch ishlatmasdan uning qilayotgan ishi xato ekanligini tushuntirishdan iborat. Bu tamoyili orqali Mahtama Gandi butun insoniyat tarixida o’ziga xos iz qoldirdi.

[140]Gandhi M.K. All men are Brothers,- Paris (UNESCO), 1958.– P. 58.
[141]Ўша асар.– P. 85.

Uning dunyoqarashining asosida Xudo va haqiqat g’oyasi birlamchi turadi. Haqiqatni u Xudo deb biladi. U o’zining barcha ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarida aynan haqiqatga tayanadi. Haqiqat barcha narsalardan ustun, deb hisoblaydi.Uning axloqiy faslafasining o’zgi bu jaynizmning axloqiy tamoyili Ahimsadir. Mahatma Gandi bu tamoyilga tayangan holda uni haqiqat bilan birga bog’lab,uning negizida yangi usul yaratdi.

Umumiy xulosalar

Mohandas Karamchand Gandi Hindistonning eng buyuk kishilaridan biri hisoblanadi. U butun dunyoga Mahatma Gandi nomi bilan mashhurdir. Mahatma Gandi Hindiston tarixida va insoniyat tarixida o'chmas iz qoldirgan insonlardan biridir. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, bu inson o'zining kuch ishlatmaslik g'oyasi orqali yangi bosqichga olib chiqqanini ko'rishimiz mumkin, shu o'rinda buyuk fizik olim Albert Eynshteyn so'zlarini eslab o'tish joiz, u shunday degan edi: "Kelajak avlod yer yuzida qachonlardir et va qondan iborat shundayin ulug' zot o'tganiga andak shubha va hayrat bilan qaraydi. Aminmanki, kelajakda moddiyat emas, aynan Gandi kabi buyuk va olijanob shaxslar insoniyatni ezgu ishlarga boshlaydilar. Barchamiz taqdirdan bizni mana shunday, kelajak avlod uchun o'rnak namunasi bo'ladigan inson bilan zanomdosh qilib yaratgani uchun minnatdor bo'lmog'imiz lozim".

Haqiqatda, Mahatma Gandi nimjongina odam bo'lsa ham, u tarixda o'ziga xos iz qoldirdi. Mahatma Gandi shunday g'oyalarni ilgari surdiki, bu g'oyalar ham amaliyotda, ham nazariyada birdek qo'llandi. Masalan, u nazariya sifatida qishloqlar tozaligi va eng chekka qishloqlarda hojatxonalar tozaligini ozoda tutish kerakligini aytdi. Iflos holat o'latga olib keladi. Amalyotda esa u o'zi buni boshlab berdi. Mahatma Gandi qishloqlarga borib eng past kastadagilarning hojatxonalarini tozalashda ishtirok etdi. Bundan ko'rinadiki, u o'z g'oyasini ham amaliyotda, ham nazariyada qo'lladi.

Hindistonda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijtimoiy-siyosiy hayot og'ir ahvolda edi. Bu davrda mamlakatda ma'rifatparvarlik harakati boshlangan bo'lib, ma'rifatparvarlar Hindistonni har tamonlama rivojlanishi uchun harakat qilar edilar. Ular mamlakatni qoloqlik sabablarini izlar va bu borada amaliy harakat qilardilar. Qishloq xo'jaligi, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa ko'plab sohalardagi kamchiliklarni bartaraf etishga harakat qilardilar. Mustamlakachilik tuzimi mamlakatni juda og'ir ahvolga olib kelganini ko'rgan ziyolilar mamlakat

ozodligi uchun harakat qildilar. Shunday insonlardan biri Mahatma Gandi u mamlakat ozodligida muhim ro'l o'ynagan. U o'zining kuch ishlatmaslik g'oyasi bilan Hindiston ozodligi yo'lida hal qiluvchi kuch bo'lib hizmat qildi.

Mahatma Gandi faoliyati ham butun Hindiston xalqi uchun hizmat qildi. U Hindiston oldidagi muammolarni his etabilagan. Hindiston o'zida juda ko'p turli-tuman dinlarni jamlagan, shundan kelib chiqqan holda ham Gandi yakdillik uchun harakat qilgan. Mahatma Gandining satyagrahasi etnik, diniy kasta, til, mintaqaviy to'siqlarni buzib tashlagandi. Hindiston birligi, istiqlol masalasi Gandining hayot mazmunini tashkil etgan. Yer yuzida " Sarvodoyiya", yani ("umumiy farovonlik jamiyati") qurish satyagraha g'oyasining mohiyatini tashkil etgan. Unda demokratik va gumanistik g'oyalar o'z ifodasini topgan. Gandi "sarvodoyiya" uchun kurashni mustaqillik uchun kurash g'oyalari bilan bog'lagan. Iqtisodiy sohada Gandi "Svadeshi", yani, milliy ishlab chiqarish dasturini ilgari surgan. सवादेश "Svadeshi" doktrinasining uch jihati: diniy, siyosiy va iqtisodiy o'tmish merosini saqlab qolib, uni zo'rlik ishlatmagan xolda asta-sekin yangi mazmun bilan boyitishni nazarda tutadi. Gandining kuch ishlatmaslik ta'limoti turli davlatlarning o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy hamkorlik masalalarida hamon dolizarbligicha qolmoqda. Ayniqsa, jahon hamjamiyatida kuch ishlatmaslik, barcha muammolarni muzokaralar orqali xal etish, qisqasi, tinch-totuv yashash tamoyillarini anglatadi.

Mahatma Gandining "Mening hayotim" asaridagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarni tadqiq qilish davomida quyidagi xulosalar kelib chiqdi:

- Mahatma Gandi davrida mamlakat ozodlikka erishdi, hind xalqi asriy orzusiga yetdi. Bu davrda va undan oldingi davrda Hindistonning ozodligi uchun kurashlar bo'ldi, lekin ular katta

qiyinchilikka uchraydilar. Gandi esa o’z atrofida juda ko’plab siyosatchilar va oddiy xalqni to’play oldi.

- Hindiston taraqqiyoti uchun to’siq bo’lib kelgan, diniy dogmalar, milliy urf-odatlar, kastachilik tizimini qattiq qoraladi. Bu yo’lda jonbozlik ko’rsatdi. U buday holatlar Hindiston mustamlakaga aylanishida ham, rivojlanishdan orqada qolishida ham asosiy omil deb hisoblab uni bartaraf etishida, hukumat tomonidan qonuniy taqiqlanishini boshlab berdi.
- Mahatma Gandining qarashlari idealistik nuqatai nazaridan bo’lib, Uning barcha asarlarida Xudo masalasi birlamchi nuqtaga chiqariladi va Haqiqatga tenglashtiriladi.
- Mahatma Gandi o’zining ta’limotida qadimgi hind falsafasiga tayanadi. Bunda ,asosan, jaynizmdagi Ahimsani qabul qiladi. Jaynizmda bu tushuncha mavjudotlarga ozor yetkazmaslik bo’lsa, Gandi uni qalban his qilish va insoniyat o’rtasida yoyish kerakligini ilgari suradi.
- Uning ijtimoiy-falsafiy qarashlari nafaqat Hindiston, balki butun dunyo uchun o’ziga xos ahamiyatga ega. Chunki u o’zining kuch ishlatmaslik ta’limoti, o’ng yuzinga ursa, chap yuzingni ham tut degan aqidaga tayanadi. Bu narsa esa insoniyat uchun har jabhada kerakligini ko’rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Davlat qonunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O’zbekiston, 2014.
2. O’zbekiston Respublikasi 464-I-son, 1997-yil 29-avgustdagi “Ta'lim to`g'risida”gi Qonuni.www.lex.uz
3. O’zbekiston Respublikasi 463-I-son, 1997-yil 29-avgustdagi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to`g`risida”gi Qonuni.www.lex.uz
4. O’zbekiston Respublikasi 429-XII son 1991-yil 20-noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to’g’risida”gi Qonuni(o’zgartirish va qo’shimchalar bilan).www.lex.uz
5. Karimov I.A. O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati. Samarqanddagi xalqaro konferensiyadagi nutq. –“Xalq so’zi” // 2014-yil 16-may.
6. KarimovI.A. Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. - “Xalq so’zi”// 2012.
7. Karimov I.A. Inson xotirasi - boqiy, qadr-qimmati – ulug’.-“ Xalq so’zi”// 2012-yil 10-may.
8. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. -T.: O’qituvchi, 2013.
9. Karimov I.A. O’zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: O’zbekiston, 2011.
10. Karimov I.A. Eng asosiy mezon - hayot haqiqatini aks ettirish. -T.: O’zbekiston, 2009.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008.

12. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma'sulmiz. T. 9. - T.: O'zbekiston, 2001.
13. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: O'zbekiston, 2000.
14. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. -T.: Sharq, 1998.
15. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. -T.: O'zbekiston, 1998.
16. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: "Sharq", 1998.

2.Ilmiy adabiyotlar

2.1.O'zbek tilidagi adabiyotlar

17. Аҳмедова М. Фалсафа. умумий таҳрири остида. –Т.2005.
18. Аҳмедова М., Йўлдошев С., Шоматов О. Ҳинд Фалсафаси.-Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006.
19. Ганди М. К.Менинг ҳаётим. –Т.:Ўзбекистон, 2009.
20. Ғиёсов Т.Ф. Қўшилмаслик ҳаракати – тинчилик ва халқаро хавфсизлик омили. – Т.: Ўзбекистон, 1984.

2.2. Rus tilidagi adabiyotlar

21. Бессмертный лотос: Слово об Индии / Сост. А. Сенкевич. — М.: Мол. гвардия, 1987
22. Василенко В. Педагогическая философия Махатмы Ганди. – М.: Наука, 1960.
23. Ганди М. К. Хинд Сварадж (главы из книги). Сатьяграха в Южной Африке (фрагменты). Мой Толстой. Статьи и речи.-М.:Наука, 1947.
24. Ганди М. К.Ревалюция без насилия. – М.: Алгоритм, 2012.
25. Ганди, М. К.Моя жизнь. Автобиография. Статьи и речи / М. К. Ганди. – М.:Наука, 1969.
26. Горев А. В. Махатма Ганди 2-е изд. — М.: «Международные отношения», 1989.

27. Датта Д. Философия Махатмы Ганди / Пер. с англ. А. В. Радугина. — М.: Изд-во иностр. лит., 1959.
28. Девяткин С. В. Искусство сатьяграхи // Опыт ненасилия в XX столетии. Под ред. Р. Г. Апресяна. — М.: Аслан, 1996.
29. Джавахарлал Неру. Открытие Индии.-М.,Издательство иностранной литературы, 1955.
30. Дьяков А.М. Рейснер И.М. Роль Ганди в национально-освободительной борьбе народов Индии //Советское востоковедение. № 5, 1956.
31. Жуков Е. Об исторической роли Махатмы Ганди// Новое время, № 6, 1956.
32. Индия Перспективы Январь-Март 2008.
33. Комаров Э. Н., Литман А. Д. Мировоззрение Мохандаса Карамчанда Ганди. — М.: Наука, 1969.
34. Комаров Э.Н. Критика буржуазного общества и эгалитарные концепции в Индии // Народы Азии и Африки, № 6, 1967.
35. Литман А.Д. Философско-этическое учение Махатма Ганди// Литман А.Д. Современная индийская философия.-М.: Мысль, 1985.
36. Мартышин О. В. Политические взгляды Мохандаса Карамчанда Ганди. — М.: Наука, 1970.
37. «Молодая Индия» 1931. (еженедельная газета)
38. Намбудирипад Е. М. Махатма Ганди и гандизм. — М.: Изд-во иностр. лит., 1960.
39. Оруэлл Дж. Размышления о Ганди // Человек. № 2, 2001.
40. Открытие Индии: Философские и эстетические воззрения Индии XX в. / Пер. с англ., бенг. и урду; Редкол.: Э.Комаров, В.Ламшуков, Л.Полонская и др. — М.: Худож. лит., 1987.

41. Переписка Л. Н. Толстого с М. К. Ганди Публ. А. Сергеенко // Л. Н. Толстой / . Ин-т рус. лит. (Пушкин. Дом). — М.: Изд-во АН , 1939. — Кн. II. — (Лит. наследство; Т. 37/38).
42. Письма Ганди к Гитлеру (оригинальный текст и перевод).
43. Полонская Л. Р. Махатма Ганди: Смысл жизни. Святой или политический деятель? // Новая и новейшая история № 4, 1991.
44. Радхакришнан С. Индийскай Философия Том Пер с анг.1956.
45. Райков А. Национально-революционные организации Индии в борьбе за свободу 1905-1930г.- М., 1979.
46. Роллан Ромен «Махатма Ганди» (1924) — Собрание сочинений, т. XX, — Л.: «ГИХЛ», 1936.
47. Рославлев У. Гандизм. — М.: Соцэкгиз, 1931.
48. Рыбаков Р. Б. Ненасильственная борьба за мир без насилия (Ахимса в индийской традиции и в учении М. К. Ганди) // «Пацифизм в истории. Идеи и движения мира»,-М.: ИВИ РАН, 1998.
49. Синхап Л. Революционное движение в Индии в 1905-1914гг.//Народы Азии и Африки, № 2, 1972.
50. Степанянц М.Т. Философия ненасилия. Размышления о Ганди и его экспериментах.//Коммунист., № 13, 1990.
51. Tagor R. Собрание сочинеий.- М., 1965.
52. Ткачева А.А. Соотношение идей и духовной общности религий и индуистского мессианства в мировоззрении М.К. Ганди // Общественная мысль Индии: прошлое и настоящее.- М., 1989.
53. Ульяновский Р.А. Политические портреты борцов за национальную независимость.- М.: Мысль,1980.
54. Ульяновский Р.А. Три лидера великого индийского народа. М.К. Ганди, Дж. Неру, И. Ганди.- М.:Наука, 1986.

55. «Хариджан» 2.II.1934 (Газета)

2.3. Ingliz tilidagi adabiyotlar

56. AndrewsCh.F. Mahatma Gandhi's Ideas. -New York: Macmillan,1930.
57. Bondurant Joan V. Conquest of violence The Gandhian Philosophy of Conflict. – Bombay,1959.
58. Candhi M.K. Indian Home Rule or Hind Swaraj.- Ahmedabad, 1946.
59. Candhi M.K. All men are Brothers. – Ahmedabad, 1952.
60. Candhi M.K. Speeches and Writings. -Madras, 1922.
61. Candhi M.K. Truth is God. – Ahmedabad, 1952.
62. Coomaraswami A.K. Essaya in National Idealism, Colombo, 1908.
63. Coomaraswami A.K. The Deeper Meaning of the Struggle, Clouchestershire, 1913.
64. DasguptaN.N. The Indian National Congress.-Calcutta, 1946.
65. FiftyMajor Thinkers on Education. – London and New York: Routledge Champan & Hall, 2001.
66. Fischer, Louis. The Life of Mahatma Gadhi.-London: Jonathan Cape,1951.
67. Gandhi M.K. History of Satyagraha in South Africa.-Ahmedabad, 1950.
68. Gandhi M.K. My religion.-Ahmedabad, 1955.
69. Masani R.P. Dadabhi Naoroji.-Delhi, 1960.
70. Pyarelal, Mahatma Gandhi. The Last Phase.-Ahmedabad, 1956.
71. Reynolds, R.White Saghibs in India / R. Reynolds. – London, 1937.
72. Roy R.M. The English Works.- Allahabad, 1906.
73. TendulkarD.G. Mahatma.Life of Mahandas Karamchand Gandhi.-Bombay.1951-1954.
74. "The Complete Works of Swami Vivekanda", Advaita Ashrama, 1922-1951.

75. “The Indian National Congress. Presidential Adresses”.- Madras, 1917.
76. “Times of India, Overland Weekly Edition”, 10.IX.1897.

2.4. Hindiy tilidagi adabiyotlar

77. गांधी ने कहा था, नई दिल्ली, 1987. Gandi so’zlaganda.-Nyu Dehli.,1987.
78. गांधी महात्मा समग्र चिन्तन, नई दिल्ली ,1994. Mahatma Gandi Fikri.-Nyu Dehli.,1994.
79. महात्मा गांधी ,सत्य के प्रयोग, नई दिल्ली, 1956. M.Gandi. Haqiqatning qo’llanilishi. Nyu Dehli., 1956.
80. महात्मा गाधी पथम भरात सस्करण: नवम्बर, 1955. Mahatma Gandi. Hindiston hukumati.,1955.
81. सत्य और अहिंसा, हिरजन सेवक 17 दिसम्बर, 1949. Haqiqat va Ahimsa, Dahlsizlarga xizmat 17-dekabr,1949.

3. Internet saytlari

82. http://antimilitary.narod.ru/antology/gandi/satjagraha.htm
83. http://pedagogic.ru/pedenc/item/foo/s00/e000468/index.shtml
84. http://rubuki.com/authors/mahatma-gandi/books
85. http://www. mkgandhi.org/artecles/ Gandhi.ppt.
86. http://www.alib.ru
87. http://www.google.com
88. http://www.google/m?q=www.kiniga+mahatma+gandi
89. http://www.mkgandhi.org/ppt/mylifeismymessage.pps
90. http://www.twirpx.com/confirm/done/